

ABDULLA ORIPOV

SAYLANMA



821.512.133/O-68

Орлов, А.

Аз навијат, 200 — 160

ДК 821.512.133 БИНОШ

ABDULLA ORIPOV

SAYLANMA



TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2007

Hurmatli o'quvchilar!

Abdulla Oripov jonajon O'zbekistonimizni uning o'tmishi, buguni va kelajagini, uning betakror tabiatini, mehnatkash xalqimizning azm-u shijoatini, mamlakatimizning mustaqilligini avj pardalarda kuylagan va kuylayotgan shoir. Ushbu to'plamga sevimli shoirimizning o'quv dasturiga kirgan she'rlari bilan bir qatorda uning turli yillarda yozilgan eng sara asarlari ham kiritildiki, ular shoir ijodi bilan yanada kengroq va teranroq tanishish imkonini beradi.



4702620204-35

M25(04)-07

ISBN 978-9943-04-054-0

© «Ma'naviyat» 2007

O'ZBEKISTON

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun -
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostonidir bori.
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
Musallio deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamningdan olib sururni,
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix qadamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.
Maqtamasman moziyni biroq,
O'tmishingni o'ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.
Aytgum bu kun, u manim, manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida,
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U, Ulug'bek ko'zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'z oldimdan kechar asrlar,
Ko'z-ko'z etib nuqs-u chiroyin.
Sarson o'tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug'ilgan joyin.
Amerika – sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh – yer osti.
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir she'r.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin
O'zi yemay o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan, farzandlar shonin

Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,
O'tdi Budda, o'tdi Zardushti.
Har uchragan nokas-u nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g'azabga to'lib
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan,
Jaloliddin samani bo'lib
Sakrab o'tding Amudaryodan.
Sensan o'shal samanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Toleingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Etmoq bo'lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob,
Chora istab jang maydonidan
Samolarga uchdi unlaring,
Shahidlarning qirmiz qonidan
Alvon bo'ldi qora tunlaring.
Qonga to'lgan kafanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Lekin oftob poymol o'lmas,
Kavaklarda qolmas oy nuri,
Odil hakam – Haq bor, beg'araz,
Mazlumlarning buyuk g'amxo'ri.
Qilich serpab tole tongida
O'zligingni tanib qolding sen.
O'g'lonlarning qatra qonida
O'zbekiston nomin olding sen.
Nomi qutlug' gulshanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko'hna olam,
Tinch turarmi dog'uli zamon.
Oromingni buzdi sening ham

Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqdi Dansigda manim,
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.
Lekin, yurtim, kezolmas g'anim
O'zbekiston atalgan bog'da.
Sensan nomus va sha'nim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
- Tashqarida izillar yomg'ir,
Kir, bobojon, yayragil biroz.
Deding: - Paxtam qoldi-ku axir,
Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg'onada balki baiqarsan.
Balki chiqib oqargan toqqa,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to'lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo'lib,
Sahrolarda ochajaksan kon.
Tuprog'i zar, ma'danim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,
Fazolarga qo'ysang ham qadam,
O'zligingni unutma aslo,
Unutma hech, onajon o'lkam.
Bir o'g'lingdek men ham bu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko'roldim ayon
Istiqlolning ufqlari osha.
Iqboli hur, sho'x-shanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug' bashar oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

1964 - 1970



GENETIKA

Men ham yashayapman o'z zamonimda,
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.
Va lekin bilmadim, mening qonimda
Qaysi bir bobomning xislati ko'proq.

Barchaga barobar meros bu bashar,
Otadan qosh-ko'zni olgan o'g'ildek.
Bilmadim, qonimda qay ajdod yashar,
Balki Bobo Kayfiy, balki Ulug'bek.

Tunlar qulog'imga chalinar elas,
Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.
Balki Muqanna bu – tinib-tinchimas,
Balki Panipatda Bobur urhosi.

Balki tanglayimni ko'tarib ketgan
Darbadar bir oshiq va yo sarbador.
Balki biror bobom shahanshoh o'tgan,
Balki vujudimda darvish qoni bor.

Men yaxshi anglayman, moziy ne demak,
Tarixda har kimning bor o'z zamoni.
Lekin tanimizda kezar-ku beshak
Olis bobolarning ming yillik qoni.

Nechog'li sabot bor yovqur Shiroqda,
Eryigitov to'pga ko'ksin bosar jim.
Rahimov g'animga tashlangan chog'da
Alpomish shiddatin payqamagan kim?!

Ohu bolasi bu – ohuday boqqan,
Shervachchada esa sherining shiddati.
Avlodlar qonida ming yillab oqqan
Buyuk bobolarning turfa xislati.

Neki ezgulik bor jahonda poydor
Joylab ola bildik barchasin qonga.
Asrlar so'ngida tole kelib yor,
Farzand bo'la bildik o'tli zamonga.

Singdi ruhimizga mangu barhayot
Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti.
Singdi ruhimizga g'olib hissiyot –
Jasur bobolarning tengsiz saboti.

Singdi qonimizga shu otash dunyo,
Singdi qonimizga muhabbat, g'azab.
Yiroq avlodlarga bizlardan ammo
Qay bir xislatimiz qolarkan, ajab?

Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,
Qay his, yuraklarda topolgan kamol?
Yiroq avlodlarga bizlardan meros,
Qolar kurashlarda toblangan xayol.

Shu yovqur asrda yashadik ro'y-rost,
Ranj-u balolardan hayiqmay taqir.
Yiroq avlodlarga bizlardan meros,
Buyuk bardoshimiz qolgusi axir.

Yashadik shu rangin dunyoda mas'ul,
To ellar ko'z yoshi bo'lmasin chashma.
O'zni bag'ishladik kurashga butkul,
Demakki, yashadik oromga tashna.

Tashna yashadik biz mehrga mutloq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz.
Goh esa quyoshdek porloq va yiroq
Haqqa, haqiqatga tashna o'tdik biz.

Tashna yashadik biz nurga, ziyoga,
Qayon ketmoqdasan, ey uchqur zamon?!
Oqibat bel bog'lab keldi dunyoga
Bizning asrimizda vallamat inson.

To'fon, qasirg'alar kechar-ku hali,
Kechadi avlodlar qator, galma-gal.

Balki oro topib bashar sayqali,
Tug'ilar eng oliy inson, mukammal.

U o'zin tanigay shunda daf'atan,
To'fon, qasirg'alar bosiriq bir tush!
Shu buyuk sayyora – yagona Vatan,
Inson o'z baxtidan o'zi ham sarxush.

Munis nigohini qadab quyoshga
Turar u nurday pok, ishqday bezavol.
Kechmish kamolotin ko'tarib boshga,
Yiroq asrlarga ko'z tikib xushhol.

Turar u go'dakday beg'ubor kulib,
Balki kulgusi ham bizdan meros bu.
Rishtai jonida bir zarra bo'lib
Bizning ham qonimiz gupurgay, rost bu...

Bobolar dunyodan o'tdilar shundoq,
Biz ham yetuklikka bo'lmadik timsol.
Lekin sen bo'larsan bokira mutloq,
Lekin sen yasharsan farishta misol.

Kahkashon sayrida hur quyosh bilan
Kezarsan to'abad shodumon, xurram.
Labda tabassum-u ko'zda yosh bilan
Senga talpinaman, buyuk nabiram...

1973



Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g'amgin nayning navosi,
Nega qalbim to'la o'kinch va malol?
Barglar orasiga tinmasdan sira
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.
Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.
Mag'lub bahodirning nayzasi misol
Ma'yus egiladi terak uchlari,
Barglar soyasida o'ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.
Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega o'chdi qalbim safosi,
Nima ham qilardim, na ilojim bor,
Bahor kunlarida kuzning havosi.

1967


KUZ MANZARALARI

Yana dalalarga boshlaydi havas,
Bog'larda xazonlar yonadi lov-lov.
Do'stlarim, bu kuzning barglari emas,
Mening yuragimdan to'kilgan olov.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,
Poyida shivirlar mening kuylarim.
Do'stlarim, bular ham mezonmas sira,
Bu mening chuvalgan, so'ngsiz o'ylarim.

Quyosh ham falakda bamisli ro'yo,
U endi yondirmas, yaltirar faqat.
Do'stlar, u ham endi quyoshmas aslo,
U o'lis yoshlikda qolgan muhabbat.

1967



SAROB

Olti oykim, she'r yozmayman, yuragim zada,
Olti oykim, o'zgalarga tilayman omad.
Olti oykim, do'stlarim ham pana-panada
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.
Nimanidir axtaraman – she'rdan ham ulug',
Nimanidir axtaraman nondan azizroq.
Dunyo o'zi bepoyon-ku, ranglarga to'lug',
Biroq mening ko'zlarimdan ranglar ham yiroq.
Injiq ruhim may istaydi gohi-gohida,
Faqat uning og'ushida topaman orom.
Xayollarim sarxush bo'lib kezgan chog'ida
U bearmon kunlarimga qaytaman tamom.
Ko'z oldimda kiprikdayin tizilar yillar,
Har biriga marjon bo'lar achchiq unlarim.
Xira tuman orasida cho'g'day miltillar
Jayron quvib jayron yanglig' o'tgan kunlarim.
O'shanda ham bo'lar edi osmon-u adir,
O'shanda ham kezar edik shundoq yalang bosh.
Bilmas edik kitob nima, shahar nimadir...
Enagamiz tunda oy-u, kunduzi quyosh.
Quyundayin charx urardik doim to'zonda,
Chang neligin bilmas edik o'sha mahali.
Onamizni o'ylar edik inson deganda,
Ammo ona tanholigin bilmasdik hali.
Balolardan asrar edi o'zi tabiat,
Boshimizga sochar edi beminnat ziyo.
To'nkarilgan osmon osti – shu sirli xilqat
Bizning uchun ham kulba-yu ham buyuk dunyo.
Kunlarimiz jilg'alarday o'tdilar oqib,
Maktab bordik – og'ir bo'lib qoldik daf'atan.
Devordagi arslon yolli kartaga boqib,
Sekingina shivirladik: mana shu Vatan!

Vatan! Mening bor qismatim shu bir so'zda hal,
 Balki men ham baxsh eturman unga jon-tanni.
 Lekin, do'stlar, rostin aytsam, men o'sha mahal
 Jondan ortiq sevar edim ona Vatanni.
 Do'stlik bilan bir butundir derdilar dunyo,
 Men ham mangu do'stlik uchun ichardim qasam.
 Tayyor edim Rahimovday bo'lgali fido,
 O'ylar edim, do'stlar uchun jangga yarasam.
 Ko'z oldimda shu qadarli pok edi olam,
 Go'yo nurdan yaralgandi inson degan zot.
 Ha, onamni o'ylar edim inson degan dam,
 Yo'q, maymundan tarqamagan derdim odamzot.
 Bu dunyoda alam bo'lmas, bo'lmas deb firoq
 Dasta-dasta kitoblardan o'qirdik ta'lim.
 Ravon yo'llar qarshingizda turibdi mushtoq,
 Derdi bizga harf o'rgatgan yosh bir muallim.
 Olis janub tortganiday qushcha yuragin,
 Yiroqlarga yetakladi meni bir suron.
 O, Abdulla, ko'zlaringni ochib qaragin,
 Kim aytadi bu dunyoda yo'qdir deb bo'ron.
 Yillar ona quchog'idan oldi-ku yulib,
 Savdolarga urdi meni murg'ak yoshimdan.
 Bir mahallar quyundayin yurardim yelib,
 Endi bo'lsa u aylanar mening boshimdan.
 She'r izlayman bu kun Toshkent ko'chalarida,
 Sekingina zirqiraydi beorom qalbim.
 Men umrimning bu suronli kechalarida
 Na bir taskin topa oldim, na she'r topoldim.
 Yuraginga bir mahallar kirgan tuyg'ular
 Endi sendan ketgaymiz deb so'raydi javob.
 Meni bir zum hol-jonimga qo'ymaydi ular,
 Qo'ymaydilar, va'dalaring chiqdi deb sarob.
 Ko'z oldimda sobit turar faqat shu Vatan,
 Kulbasi ham kenglik qadar chuig'aydi meni.
 Tuyg'ularim faqatgina unga berar tan,
 Yurtim, men ham umrim qadar sevgayman sening.
 Men ham sening quyoshingda o'sib-ulg'aydim,
 Qarzdorman, tuprog'ingda qoldirdim izlar,
 Ammo ayting, qayda qoldi u yoshlik paytim,
 Qayda qoldi men ishongan u o'zga hislar.

Ta'na qilmay axir sevgim mukofotini
Inson uchun ming otashda kuyar edim men.
O, qanchalar sevar edim inson zotini,
Qanday buyuk muhabbat-la sevar edim men.
Bugun to'nib atrofimga qarayman sekin,
O't berolmas qalbga endi u yoshlik damlar.
Men insonni bir insonday sevardim, lekin
Nechun ko'pdir haligacha razil odamlar.
Qaylardadir hamon kezar zulmat timsoli,
Qaylardadir hamon tinmay oqmoqda-ku qon.
Ko'zlarimga goh ko'rinar telba misoli
Men bir vaqtlar sajda qilgan hazrati inson.
Qaylardadir fisq-u fasod, hasad, xusumat
Insoniyat farzandlarin tortmoqda dorga.
Gar bor bo'lsang javob ber, ey ilohiy qudrat,
Nahot go'dak ishonchini yozibsan qorga?!
Olti oykim, ruhim shunday uchmish tanadan,
Olti oykim, meni xayol ezar beomon,
Olti oykim, allakimlar pana-panadan
Tosh otadi darvozasiz qalbinga tomon.
Shovqin to'la ko'chalarda kezaman tanho,
Yana she'rim yuva boshlar dildan g'amimni,
Xayollarning girdobida qolganda ammo
Alam bilan xotirlayman muallimimni.
Xazon to'la bog'chalarga boraman tag'in,
Yana o'zni xayol ila she'rga tashlayman.
To'nib qolgan yuragimga berib bir taskin,
Yana quvnoq qo'shiqlarni kuylay boshlayman.
Ne tong, axir farzandmiz-ku shu zamonaga,
Axir ona siysnasidan farzand tonolmas,
Qo'l ko'tarib bo'larmidi axir onaga,
Zotan, unga qo'l ko'targan - farzand sanalmas.

1966



HOLAT

Bir nafas quyoshni o'z holiga qo'y,
Otashin dilingga etmagin qiyos.
Bir nafas quyoshday ko'rsatsin u ro'y,
Bir nafas quyoshday portasin quyosh.

Bir zum dengizga ham boqqil betuyg'u,
Dema, o'ylarimday u teran, tengsiz.
Bir zum baliqlarga vatan bo'lsin u,
Bir zum dengiz bo'lib guviasin dengiz.

Shamolning bo'yniga osilma bir dam,
Yelmasin mayli u xayoling misol.
Bir zum o'z holicha yayrasin u ham,
Bir zum shamol bo'lib tentisin shamol.

Bir zum sen zaminni qo'ygil bequtqu,
U axir ko'p tuydi tuyg'ular ta'min.
Bir zum maysalarga ona bo'lsin u,
Bir zum zamin bo'lib yashasin zamin.

Bir zum o'z holimga qo'y sen ham, bolam,
Ayon-ku menga ham Inson matlabi.
Bir zum odam kabi yashayin men ham,
Men ham yashay bir zum bir odam kabi.

1978

KUZ XAYOLLARI

1

Qorayganda uzoq tog'larning qori,
Bog'larga cho'kkanda oqshomgi tuman,
Sovuq kuz yelidan junjikib, nari -
Ochiq ayvon ostin etganda maskan,
Do'stinam, xayolan quchaman seni,
Xazon davrasida kutaman seni.

2


Bunda bari go'zal: tim qora oqshom,
Yulduzlar boqadi tund va yovvoyi.
Qamishzor, shovullab turguvchi soy ham
Sovuq va yoqimli: shundoq anvoyi.
Ularga boqaman, to'naman ba'zan,
Shirin bir xayolga cho'maman ba'zan.

3

Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.
Uning qo'shig'ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida.

4

Unga bari birday hayot va o'lim,
Go'yoki keksa chol so'ngini o'ylar.
Va sekin silkitib kahrabo qo'lin
Ko'rganin-bilganin birma-bir so'ylar.
Bir hikmat o'qiyman xazonlarda men:
«Yashagin-u, biroq yaproq bo'lma sen».



5

Mangu yashillikning maskani qayda,
 Qaydadir xazonni bilmagan bahor?
 Nechun u hovliqib oqquvchi soyda
 Chavandoz umrning qaytmas sehri bor?!
 Nechun uyg'onadi qaytadan bahor,
 Nechun inson umri bo'lmagay takror?..

6

Meni savollarga ko'mar daf'atan,
 Xazonning taqdiri, so'nggi shovqini.
 Ko'zimga ko'rinar umrim qaytadan,
 Garchand surmakdaman bahor shavqini,
 Garchand yigit yoshim yashnab tursa ham,
 Keksalik qismatin o'ylayman shu dam.

7

Shu dam tuyg'ularga to'ladi ko'nglim,
 Titrab tarashlayman qalamim uchin.
 Tong ham yorishadi, ey mening umrim,
 Bunchalar tezlikda chopasan nechun?
 Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham,
 Do'stim, huzurimga shoshib kel sen ham!

1962



SEN BAHORNI SOG'INMADINGMI

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog'ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog'lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog'lar,
Vasling menga bo'lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'ngirlarda sakraydi ohu,
Na'matakda sa'va mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun navro'zi olam,
Do'stlaringa gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrin bo'yi chorlab o'tarman,
– Sen bahorni sog'inmadingmi?


1963



MILTIRAYDI MITTI YULDUZ

Ko'k gumbazin bir chetida
Bo'shliqlarga urib bosh,
Miltiraydi mitti yulduz,
Tanholikdan to'kib yosh,
Atrofida na bir yulduz,
Na bulut bor, na tuman.
Yulduzlarga termulib u
Titrab turar shamsimon.
Eh, bechora, yashash nechun,
Portamasang, kulmasang.
O'z to'dangdan nega uchding,
Qaytish yo'lin bilmasang?!

1964



MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

Men nechun sevaman O'zbekistonni
Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men,
O'paman: «Tuprog'ing bebaho, Vatan...»
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashg'ar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!
Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga elitgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar,
Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog' unsin manguлик muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!

«MUNOJOT»NI TINGLAB...

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang,
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Qaylardan tug'ilmish bu oh-u faryod.
Kim u yig'layotgan? Navoiymikin
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!
Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko'ksinga urmagil xanjar.
Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir!
Agar shu munojot rost bo'lsa agar,
Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo,
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Asrlar g'amini so'ylar munojot.
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzot!

1964



O'ZBEKISTONDA KUZ

Yurg'il, dalalarga ketaylik, do'stim,
Diqqinafas uyda yotmoq paytimas.
Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun
Bir pari faslning og'ushida mast.
Shabnam shovullaydi bog'lar qo'ynida,
Salqin tuman ichra bo'zarar tonglar.
Quyoshning erinchak yog'dularida
Nafis yaltiraydi bargi xazonlar.
Har yonda to'kinlik...
Kuzdan nishona...
Har yonda go'zallik yoymish daftarin.
Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,
Mening shodliklarim, ezgu dardlarim.
Mening ona xalqim...
Ey qadim, halol,
Rizqi ona yerga sepilgan xalqim,
Ushoq chigitni ham etmay deb uvol,
Million egatlarga egilgan xalqim!
Bir nafas boshingni ko'targin-u boq,
Yer yuzida ajib viqor va nufuz.
Sening o'zing kabi o'ychan va quvnoq,
Xushfe'l bo'lib kelmish tuprog'ingga kuz.
Ulug' Alisherning soch oqin ko'rib,
Og'ir xayollarga cho'mgan bu fasl
Qayrag'och yonida g'amgin o'tirib,
Chollarga hassalar yo'ngan bu fasl,
Azaliy ko'rkini qiladi ko'z-ko'z...
Nahotki shuncha tez aylanar dunyo?!
Baxtli keksalikni yodga solar kuz,
Sokin xilvatlarga chorlaydi, ammo,
Do'stginam, paytimas, aylab sayribog',
Xilvatda o'y surish yarashmas bugun.

Zahmatkash o'zbekning hosili qandoq?!
Kuzning falsafasi shudir biz uchun.
Ulug' mehnat kezar shan dalalarda,
Har yonda hokim bir tashvishli ilhom.
Quyosh bota boshlar... gavjum qirlarga
Qoraya-qoraya to'shalar oqshom.
Eh, kuzgi oqshomlar...
Dilimda mening
Teran tuyg'ularim qo'zg'alar jo'shib,
Qo'zg'alar-u, shu dam qalbidan sekin
To'kila boshlaydi oydin bir qo'shiq.

1964



AYOL

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.

Sevgidan yetim-u umrdan yarim,
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir.
Parishon sochlari yor ko'ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o'tdilar, hamon u yolg'iz,
Mung'ayib termular botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang bo'lmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,
Bunchalar buyuksan, vafo shevasi.
Sengadir hurmatim, senga sharafim,
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi, ey, sadoqat satridan nolib,
Nadomat komida qolganlar, ayting.
O'zini ming bitta bozordan olib,
Ming bitta bozorga solganlar, ayting.

Shu cho'lpon ko'zlarning buyuk hurmati,
Shu aqiq lablarning rost so'zi deya,
So'ylang-chi, vafoning nadir qimmatini,
Siz ham kutganmisiz biror soniya?!

Ba'zida tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.
Biroq yoringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat.

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qo'yingiz barmisli xayol.
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.

1965



XUSH KELIBSAN, YANGI YIL

Yana kelding hadyaga to'lib,
Kutmoqdaydik seni intizor.
Qadamingdan minnatdor bo'lib
Zarra-zarra to'kiladi qor.
Xafasmiz bobo yildan ham,
Quvontirdi u bizni qancha:
Konfetini ko'rishdik baham
Va qo'shiqlar o'rgandik ancha.
Nihol o'sdi, qurildi qasr,
Fazolarga qildik safarlar,
O'sha yili tug'ildi axir
Bizning qancha o'rinbosarlar.
Seni aslo unutmagay dil,
Xayr endi, xayr, yil bobo.
Simobdayin tipirlar ko'ngil,
Yangi yilga endi marhabo.
Endi uni qutlab ziyoda,
Manziliga jadal eltamiz.
Kirmoq uchun kechki kinoga,
O'n oltiga tezroq yetamiz.
Yo'l olamiz maktabga qator
Bu yil endi birinchi karra.
Maktab yo'li, do'stlar, fazokor
Parvozidan kam emas zarra.
Bog'chalarga emaklab oz-oz
Yana kelar yangi qismimiz.
Ulg'ayadi yoshimiz bir oz,
O'zgarmaydi ammo ismimiz.

1965



NAY

Yashnardi u adirda durkun,
Epkinlarga ochgancha quchoq.
Keldilar-u odamlar bir kun,
Tanasiga sanchdilar pichoq.

Ayirdilar avval ko'zidan,
So'ng bag'rini oldilar o'yib:
Yetmaganday bu ham, bo'g'zidan
Pufladilar lablarin qo'yib.

Ko'rmagandi bunchalar xo'rlik
Hatto ayoz tilganda yuzin.
Alamiga chidolmay sho'rlik,
Nola tortib yubordi uzun.

Odamlar-chi, to'plandi shu on
Faryodiga qilolmay toqat.
Bir qamishni yig'latib chunon,
So'ng o'zlari qildilar rohat.

1966



ABDULLA QAHHOR

Yo'llar ortimizda qolar edilar,
Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.
Nega ular cheksiz, desam dedilar:
Bu yerdan o'tgandi Abdulla Qahhor.

Yo'llar ortimizda qolar edilar,
Cho'qqilar qolardi yuksak va qator.
Nega ular yuksak, desam dedilar:
Bu yerdan ham o'tdi Abdulla Qahhor.

1967



ALISHER

Jahonki muqaddas neni ko'ribdi –
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftariga o'zbek degan nom.

Boyqaro irg'ishlab istak otida,
Jahonga boqqanda misli bola sher,
Hirotdarvozasin bir qanotida
She'riy lashkarini tizgan Alisher.

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku rost.
Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,
Alisher qalamni ko'rsatgan, xolos.

Tun bilan tong erur tashbihda udum,
Misoli zahr-u may, hajr-u shakar lab.
Kimnidir quyoshday eslasa mardum,
Kimnidir zulmatday yurarlar qarg'ab.

Nido tingla, bu kun, yurtning tarafdin,
Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!
Ogoh bo'l, Alisher, sen ushbu gapdan:
Har ikki nabirang biri – Alisher.

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to.
Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.

Birovlar nazdida johil Osiyo
Faqat zavol ko'rib, ko'rmagan kamol.
Muso iltijosi yetdi-yu go'yo,
Haq Tur tog'i uzra ko'rgazdi jamol -

Jahon mehrobida paydo Alisher...
Shodmon qasida ayt sen ham, ey quyosh!
Besh yuz yil unga ham nima gap axir,
Mingga qadam qo'ydi yigirma besh yosh.



YURTIM SHAMOLI

Yo'llarda yeldirim misoli yeldim,
Yellar vodiysiga boshladi havas.
Yelvagay Hisorning bag'riga keldim,
Sen esding – taraldi siym tanda atlas,
Sen esding – ochildi yorning jamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Men-ku bu dunyoda bir zori visol,
Karbalo dashtida Majnunsifatman.
Shamollar ichida men ham bir shamol,
Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu xayoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,
Ulardan esdilar turfa xil nafas.
Ularda goh qayg'u, goh shodlik ko'rdim,
To'xtamay o'tdilar bari ham birpas.
Faqat qayg'ulardan sen o'zing xoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Shamollar esgandir ushbu dunyoda,
Shamollar goh quyun, gohida dovul.
Ular goh oshkora, goho ro'yoda
Qancha bo'stonlarni sovurgan butkul,
Lekin sen bo'lmagin bog'lar zavoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Esgin, ey, bog'larning jamoli kulsin,
Moviy nafas bilan to'lsin etaklar.
Uchqur qo'shiqlarga bu olam to'lsin,
Sha'ningga shoirlar aytsin ertaklar.

Esgin, Vatanimning taralsin boli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

Meni chorlayotir oliy bir jamol,
Bilmasman, oh, unga qachon yeturman.
Bu gulshan vodiya men ham bir shamol,
Shamol kabi keldim, shundoq keturman.
Lekin Abdullaning boqiy kamoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.

1969



SARATON

Saraton chog'i bu – zarra shamol yo'q,
Tutlar kavagida mudrar g'urraklar.
Nogahon falakka urgan kabi do'q,
So'zsiz qotib turar bo'ychan teraklar.

Osmon lov-lov yonar oftob qo'ridan,
Ufqda sarobdan otashin baldoq.
Chinqirib yuborar kunning zo'ridan
Qaygadir berkinib olgan chirildoq.

Birdan tinib qolar shu betinch dunyo,
Hatto sharsharakning o'chganday sasi.
Borliq suv tagiga cho'kkanday go'yo,
Qanchalik termulma – chiqmas nafasi.

Go'dak uhicha ham shamol topilmas,
Butaning tagida bo'zto'rg'ay hayron.
Dehqon tol tagiga cho'zildi birpas,
Tindi shoxchadagi qushcha ham biyron.

Mening dehqon bobom, andak orom ol,
Quyosh buroviga olgan palla bu.
Saraton o'zi ham mudraydi behol,
Ohangsiz yalla bu, so'zsiz alla bu!

Hali tong g'unchasi ochmasidan lab,
Nahor farog'atin o'ylamay taqir,
Kimsasiz dalaga ko'zni uqalab,
Chiqib kelganingni ko'rdim-ku axir.

Ko'rdim-ku manglaying ter bilan qotib,
Berahm otashga berganingni tob.
Ko'rdim-ku tepangda o'zin yo'qotib,
Hayratdan lol qotib qolganin oftob.

Azm-u shijoating men axir ko'rdim,
Ko'rdim ko'zlaringda charchoq bir kulgu.
Mayli, orom olgin, ey bobo yurtim,
Saraton junbushga kelgan payt-ku bu.

Butun olam go'yo ulkan doshqozon,
Qaydadir – ko'rinmas uning naryog'i.
Bu qaynoq qozonni kuzatmoq oson,
Ichiga tushmoqlik osonmas chog'i.

Cho'ntakdan to'kilgan tangalar misol
Shu'lalar o'ynaydi supa uchida.
Birovdan xijolat bo'lgan kabi tol
Yer chizib turadi – dami ichida.

Oftob qayta boshlar, ko'lanka maydon,
Yana bosh ko'tarar namozshomgullar.
Sekin moviylashar qizargan osmon,
Oqarib ko'rinar kumushrang yo'llar.

Yana yelkanini ko'tarar shamol,
Yana chug'urchuqlar uyg'onar bog'da.
Bobo yonidagi boladay xushhol
To'rg'aylar charx urar so'ngsiz samoda.

Yana yela boshlar oqshom nafasi,
She'r oni, ishq oni, mehnat oni bu.
Bu quyosh o'lkasin otashin sasi,
O'zbek diyorining saratoni bu.

1969



ONA SAYYORA

Qarshimda yer sharin surati turar,
Salmog'i Quvaning anoricha bor.
Tim qora osmonda porlab ko'rinar
Shu jajji sayyora ko'rkam, ulug'vor.
Unga boqaman-u ushlayman yoqa,
Nahot shu ko'rganim rost bo'lsa, nahot?
Nahotki yerimiz shu kichik soqqa?
Nahotki biz shunga jo bo'lsak, hayhot!..
Ummonlar ko'rinar qatra yosh misol,
Chigit uvog'icha kelmas tog'lar ham.
Qit'alar, dengizlar aftoda bir hol,
Bari bir nuqtaga bo'lib olmish jam.
Nabilar, rasullar, dohiylar unda,
Qabrlar, qasrlar turgandir qator,
Balki huv ko'ringan moviy to'lqinda
Suv ichgan go'dakning nafasi ham bor.
Quloqqa chalinar otlar dupuri,
Sor burgut o'zini o'ljaga urar.
Sharqda cho'pon yoqqan gulxanning nuri
Shimol sayyohiga ko'rinib turar.
Ana, Himolayning bag'rida bir qiz,
Yelkada ko'zasi – borar buloqqa.
Sohilda uchrashdi ikki qalb yolg'iz,
Shivir-shivirlari kelar quloqqa.
O, ona sayyora, kurrai qutlug',
Samodan suvrating ilk bora ko'rdim,
Havoyi bir xayol sehri emas, yo'q,
Farzand mehri bilan men boqib turdim.
Kun kecha emasmi, xislating sanab,
She'r yozib yurardim senga parvona.
Bu kun suvratingga so'zsiz bosdim lab,
Shu senmi, yolg'izim, shu senmi, ona...

Falakda bir o'zing turibsan hayron,
Nahot sen bo'lmasang bunchalar tanho,
Siynangga yopishgan farzanding – inson
Beva bag'ridagi yetimday go'yo...
Qayga ketmoqdasan bunchalar shoshib?
Orom istaysanmi ko'kda ovora?
Balki farzandingni ko'ksingga bosib
Yig'lab ketmoqdasan, ona sayyora...
Farzandlaring bordir sonsiz-sanoqsiz,
Vo ajab, qadringni gohida bilmas.
Ular-ku qoshingda changday salmoqsiz,
Lekin bag'ringga ham siqqisi kelmas.
Osmon torliq qilgan gala chumchuqdek
Makon talashadi goho betartib.
Sen-chi, mehvaringda aylanasan tek,
Yaxshi-yu yomonni yelkangda ortib.
Sening yuragingda laxta-laxta qon,
Siynang nimalardan bo'lmagan pora.
Qayg'u-hasratlaring barchasi ayon,
O, buncha dardkashsan, ona sayyora.
Sen hozir suratsan ko'zim o'ngida,
Eshita bilmassan so'zimni balkim.
Bir zumlik bezovta o'ylar so'ngida
Yana ruxsoringga tikilaman jim.
Bir yonda lojuvard Bahri Muhit bor,
Bir yonda za'faron Sahroi Kabir.
Bir yonda oq sochli tog'lar purviqor
Sening toleingga o'qiydi takbir.
Ellar to'zg'ib yotar gul yaprog'idek,
Bir yon shoh-u gado, bir yon do'st, g'anim.
Bir yonda xayoliy Eram bog'idek
Buyuk va betimsol mening Vatanim.
U mening ko'zimga hilolday mahvash,
Oftob kelar faqat uning qoshiga.
O, ona sayyora, bag'ringni poklash
Mening vatanimning tushgan boshiga.
Uning quchog'ida g'amdan yo'q nishon,
U yerda tentimas iblis xayoli.
U yerda do'stlikni ulug'lab inson,

Takallum qiladi qumri misoli.
Yillar o'tar, balki o'tar ko'p zamon,
Yer yuzi chulg'anar baxtga, chamanga.
Agar dardlaringga bo'lolsa darmon,
Ruhim fido bo'lsin shunday vatanga.
Men ham bir o'g'lingman, ona sayyora,
Bag'ring men uchun ham xoki pok bo'lsin.
Toleing toabad bo'lmasin qora,
Manglaying oq bo'lsin, yarqiroq bo'lsin.

1969



RUHIM

Vujud deganlari asli nimadir?
Dayr dengizida yurgan kemadir.

Bir kun bir qoyaga urilgay kema,
Ruhim, sen vujuding g'adini yema.

Yuksak fazolarda aylagil parvoz,
Senda na ohang bor va na bor ovoz.

Senga na bo'ronlar kor qila olur,
Seni na yo'qotib, bor qila olur.

Sen misli kamalak – yuksak va so'lmas,
Kamalakni esa parchalab bo'lmas.

1969



YOLG'IZLIK

Ko'kda oy kezadi besar-u somon,
Yiroq zamin uzra tashlab horg'in iz.
Mana, o'tsa hamki necha ming zamon,
Ko'kda oy tanhodir, ko'kda oy yolg'iz.
Odamlar mohtobga yayrab qarashar,
Yolg'izlik negadir oyga yarashar.

Ko'kda quyosh kezar, u munis ona,
Milliard yulduzlarning shamsi tal'ati.
Yulduzlar bo'lsa ham garchi parvona,
Yolg'izlik bo'libdi lekin qismati.
Har nechuk oftobning yo'rig'i boshqa,
Yolg'izlik yarashar ona quyoshga.

Bobolar gohida o'kinchda qolib,
Shohlarning nomiga noma bitganlar.
Insonlik sharafin xotirga olib,
Tangrining yodini zikr etganlar.
Deganlar boqishib sirli samoga:
– Yolg'izlik yarashar faqat xudoga.

Men na oy, na quyosh, na yer, na samo,
Shu'laga intizor giyohday o'sdim.
Yolg'izlik hasratin tortmaylik aslo,
Bor bo'lsang, yodga ol meni ham, do'stim.
Yolg'izlik hasratin ko'rsatma, taqdir,
Yolg'izlik insonga o'lim-ku, axir...

HANGOMA

Qor yog'ardi bo'ralab
Qolishmasdi dovuldan.
To'yga aytib ketishdi
Shundoq qo'shni ovuldan.

Yo'lga chiqdi ikki chol,
To'yga borish qarz beshak.
Birovi otga mindi,
Birovi mindi eshak.

Qor-chi, hamon yog'ardi,
Yog'ar edi gupillab.
Yo'lni eshak boshladi,
Ot ergashdi jo'killab.

Gapga tushdi ikki chol,
Suhbat u yoq-bu yoqdan.
O'tgan-ketgan, baland-past,
Goh kalla, goh tuyoqdan.

Suhbat degan soz narsa,
Qolmasang bas surgashib.
Yo'rg'alar eshak hamon,
Ot boradi ergashib.

Asta-sekin kun qaytar,
Ufqlarda o'chgan rang.
Qor oralab qaydadir
Bir yulduz chaqnar arang.

Chollar-chi, hamon yo'lda,
Suhbat o'sha-o'shaydi.
Biri dedi:- Oqsoqol,
Kun botganga o'xshaydi.

Yo'g'-e, usta, — der biri, —
Ko'zdan qolibsiz butkul.
To'rt chaqirim ovulga
Nahot yursak bir kun yo'l.

Ammo bu gap rost edi,
Yulduzlar chaqnar bot-bot.
Oldinda eshak borar,
Orqada lo'killar ot.

Ovuldan-chi, darak yo'q,
Oppoq edi qir-qiya,
«Adashib ketdikmikan,
Kuppa-kunduz kuni-ya?

Gap bosdimi yo g'aflat,
Tavba, bu qandoq o'yin?»
Qor tindi-yu, chollarning
Ichiga kirdi quyun.

— Qora qishda to'y qilmay
Battar bo'lgur nokas, gov.
Bachchag'arning aslida
Fe'li sovuq edi-yov.

Qaydadir cho'zib-cho'zib
Uvlab qoldi-ku qashqir,
Kim ham, ayting, bundoq choq
Tashvishga tushmas axir?

Xususan, keksayganda
Xafa bo'lib ketasan.
Aytaylik, o'sha qashqir
G'ajib ketsa netasan?

Qora sovuq tish qayrab
Qovurg'ani ezardi.
Keng sayhonda ikki chol
Yo'l axtarib kezardi.

Yo'l qayoqda, to'rt taraf
Qalin, oppoq qor edi.

Eng battari – sovuqda
Jon saqlash dushvor edi.

Qaytay desa iziga,
Belgi ham yo'q, iz ham yo'q.
Qaltiraydi ikki chol,
Taskin ham yo'q, so'z ham yo'q.

– Ne bo'lsa ham topshirdik
Yaratganning o'ziga!
Tavakkal deb, ot boshin
Qayirdilar iziga.

Peshonada borini
Ko'rar inson degan zot.
Yo'l soldilar qaygadir,
Ot boshin qo'yib ozod.

– Bir kor-hol bo'lmay endi,
Uyni topib borsak bas, –
Surgaladi ot horg'in,
Orqada eshak besas.

To tongacha ikki chol
Yurdi, turdi, surindi.
Uzoqlarda bir mahal
Qora narsa ko'rindi.

Bo'g'oti bor, haytovur,
O'xshab turar qishloqqa.
«Xudoga ming shukr», deb
Yurdilar o'sha yoqqa.

Tuman ichra dov-daraxt
Turar edi yaltirab.
Tongga yaqin qishloqqa
Kirishdilar qaltirab.

Tugagandi bardosh ham,
Tugagandi bor sabot.
Yetmay bir darvozaga
To'xtab qoldi sho'rlik ot.

– Joy so'raylik, naryog'i
Bir gap bo'lar, oqsoqol.
Qamchin bilan taqa-tuq,
Darvozani qoqdi chol.

Izg'irin-chi, izg'irdi,
Yer-u ko'kda horg'in tus.
Bir kampir chiqdi shu tob,
Qo'lida xira fonus.

So'z boshladi chol titrab,
Halqumiga kelib jon:
– Bir kechaga bizlarga
Joy bersangiz, yangajon.

Qora qyun charx urib
Ko'z oldini tutardi.
Kampir kelib yaqinroq,
Fonusini ko'tardi.

– Hoy, senmi bu, yer yutkur,
Imoningdan kechdingmi?
Aljiraysan, yo to'yda
Aroq-paroq ichdingmi?

Alqissa shu: ot yo'lni
Uy tomon burgan ekan.
Choi-chi, o'z kampiridan
Joy so'rab turgan ekan.

1971



DENGIZGA

Yo'lim boshladi to, kezzdim dala-tog',
Kezzdim ne yurtlarni – chiroyi tengsiz.
Nasib etgan ekan, sen bilan bu chog'
Ilk bora ro'baro' keldim, ey dengiz.
Sahroyi o'zbekman, toleim kulib,
Muqimman, o'z yurtim bilan hayotman,
Va lekin dunyoda shamolday yelib,
Dengizday keng qalbni axtargan zotman.
Qalbim ochay deyman senga ushbu choq,
Lekin tinglarmiding, bahri beomon.
Menman bu – qoshingda zarra bir ushoq,
Sen – ko'kka sha'shaa tashlagan ummon.
Neni anglar eding, sen-ku bir xilqat,
Milliard tuyg'ulardan qotgan sharora.
Senga dil ochmoq ham fol ko'rmoq faqat,
Inson o'z qalbini anglasa zora.
U sohir hislardan kechdi beomon,
Afsungar tuyg'ular bo'lganlar g'oyib.
Beshafqat tafakkur asri bu zamon,
G'arib deymi uni va yo g'aroyib
Uning poyidadir zamin-ziroat,
Uning poyidadir hattoki samo.
Qayda she'r? Qayda sir? Qayda sinoat?
Qayda Majnun uchun dashti Karbalo?
Dengiz, tanib olgin uni bir karra,
Hazrati insondir – o'zi qo'ygan ot.
Dengiz, she'r emassan endi sen zarra,
Sen – po'lat zanjirlar zabtidagi zot.
Ha, buyuk shoirlar qadami o'chgan,
Hech kim mavjlaringdan o'qimas tuyg'u.
Xitobmas to'lqinlar bag'riga tushgan,
Qaysi bir baliqchi tashlagan to'r-ku.


Farzandman shu buyuk asrimga beshak,
 Men ham uning uchun dilni o'rtarman.
 Oh, lekin ko'ksimda yongan shu yurak
 Bir kun tosh qotmasa deya qo'rqarman.
 Olis ufqlarda yongan bu mayoq,
 Afsus, men uchun ham xayolmas aslo,
 Bo'ronlar qalbimga solmagay titroq,
 Yo'qdir men uchun ham sehr ila ro'yo.
 To'plar gumburlashi, vahshat sadosi,
 Qutqularga to'lgan ushbu kun zamon.
 Tashlandiq ushoqning bo'lib gadosi
 To'p-to'p chag'alaylar oh chekar nolon.
 Yulduzlar yonadi, oftob charaqlar,
 Kukunga aylanar vujud ham, ammo
 Yaralgan ekanki Inson bir vaqtlar,
 Nahot tuyg'udan u bo'lgay mosuvo?!
 Sarson, sohillarda tentirab yana
 O'yga botarmikan beruh oshiqlar?
 Dengizlar ufqiga boqib mardona
 Kuylarmikan hech kim o'tli qo'shiqlar?
 Moviy dalalarda o'zni unutib,
 Shabnam ichra kezsa mallarang toychoq,
 Fazogir Mirrixning mehridan kechib,
 Boqarmikan unga entikib, mushtoq?
 Ulug' ilohasin - tilsiz jamolin
 Unutib qo'ymasmi bir kun odamzod?
 Buyuk nasibasin - tengsiz xayolin
 Shu buyuk tafakkur etmasmi barbod?
 Ilhomning dilimda, xayr, ey dengiz,
 Garchand visolingdan aslo qonmasman.
 Lekin yoshligim ham o'tar-ku, esiz,
 Bir vaqt yonganimday balki yonmasman.
 Balki sayr etgali mavjlaring bo'ylab,
 Tag'in qaytajakman, ey oshno ummon.
 Sen-chi, kuylayvergin hamisha guvlab,
 Insonlar qalbiga solib g'alayon.



MUALLIMLARGA

Nechog' baxtiyorman, ta'zimda shu tob
Sizning sha'ningizga bitmoqdaman bayt.
Ne odam bo'lardim, qo'limda kitob,
Biror harf tanimay tursaydim loqayd.
Siz-ku «Alifbo»dan «Qomus»gacha to
Bari-barisini tanitgan ustoz.
Ilk bor Siz ko'rsatgan duraxshon Zuhro
Bukun she'rim ichra tashbihdir mumtoz.
Siz mo'jaz yurakda yoqolgan yog'du
Oqibat quyoshdek socha olur nur.
Buyuklar haqqiga qasamyod gap bu:
Sizdan boshlanadi asli Tafakkur.
Olamda ko'p erur muborak onlar,
Tabarruk zotlar ham garchand ko'p erur.
Sizgadir ilk rahmat, aziz insonlar,
Munis muallimlar, Sizga tashakkur.

1974



HAVAS

Bahor osmonida chaqnasa chaqin,
Ko'ksingdan o'tilar olovli nafas.
Ey, sen, javon shoir, o'spirin oqin,
O'tli yuragingga qilurman havas.

Ko'kda yulduz emas, u sirli qo'shiq
Intizor yigitning chashmiga singgan.
Muhabbat dardiga muhtalo oshiq,
Senga havas bilan boqurman chindan.

Belanchak boshida o'ynar parcha nur,
Jajji chaqaloqqa bor dunyo abas.
Shu parcha shu'lada ko'rding ne sehr?!
Go'dagim, men senga qilurman havas.

Lochin yurakdir bu — yashinday shahdi,
G'addor qoyalarga urguvchi qanot.
Senga havas bilan boqurman, rosti,
O'limga tik ko'ksin tuta olgan zot.

Baxtlidir, qay qalbda yoniq nur, ziyo,
Baxtlidir, qay qalbda yoniq hayajon.
Shu sabab dastida bo'lsa ham dunyo,
O'tli yoshligini qo'msaydi inson.



IKAR

(*Talabalariga*)

Fazoga ilk bora qanot qoqqanni
Ikar deb atamish xayolan inson.
O'zini beayov o'tda yoqqanni
Unutmay yuradi abadiy jahon.

Ikar bitta emas, yo'q, bitta emas,
Sanog'i yulduzlar misoli katta.
Kimki ilk savobga iz ochdimi, bas,
Shu yilning Ikari bo'lgay, albatta.

Yarog'im yo'q, deya ilk bora qo'lin
Salomga cho'zgan ham Ikar atalgay.
Tark etib g'ordagi asriy manzilin
Ilk chayla tuzgan ham Ikar atalgay.

Ikardir Prometey nomini olib,
O't izlab xudolar qoshiga borgan.
Ikardir ilk sevgi domida qolib,
«Yallama yorim»ni kuylab yuborgan.

Odamzod boshidan o'tib ne kunlar,
Ikarsiz qolmagan lekin hech qachon.
Birovin jigarin cho'qib quzg'unlar,
Birovi o'tlarda yongan beomon.

Gullar maydonida anqiydi hanuz
Jasur Brunoning jizg'anak dudi.
Yovqur Spartakka buraymi yo yuz,
Yo Rab, Ikar zotin bormi hududi.

Nurga, ro'shnolikka baxsh etib o'zni
Ne zotlar o'tmadi qadimdan qadim.
Ne ajab, hattoki Gulsara qizni
Ikar deb atashga aylasam jazm.

Jasorat timsoli lkardir abad,
Jismi gar o'tlarda ketgandir yonib.
Muzaffar fazogir ucharkan baland,
Zamona lkari deymiz quvonib.

Ey, mening davronim, o'zing bosabot
Ko'kda ham ko'kraging kerib turibsan.
Har qadam, har zumda bitta kashfiyot,
Besanoq lkarlar berib turibsan.

Inson dahosiga bormi had-hudud,
Soat chiq-chiqidek tin olmas dunyo.
Odamzod g'or ichra qolardi mahdud,
O'sha — bir lkari bo'lmasa ammo.

Zamin-u zamonda o'zingsan g'olib,
Ey, mening dilovar, olovqalb ukam,
Sen o'zing ustozsan, sen o'zing tolib,
Sen o'zing armonim, umidlarim ham.

Sen borsan — bu davron dasturxonida
Oftob ham bamisli qo'rdan chiqqan non.
Sen borsan — nur porlar yurt osmonida,
Sen borsan — sobitdir bu qadim jahon.

Zamon qo'llaringdan tutmishdir bu kun,
O'lmas bobolarning ruhi bo'lsin yor.
Arslon juftgarchisi¹ kabi va lekin
Obro' yuqi bilan yashama zinhor.

Haqqing bor, dilingda ajdod g'ururi,
Ustozlar qoshida, mayli, eggin bosh.
Unutma va lekin, ular har biri
Lkar bo'la olgan — asriga yo'ldosh.

Faxr-u g'ururingga kelmasin malol,
Oqmagan daryoning nomidir taqir...
Sinmas qanot bilan — buyuklar misol
Lkar bo'la olgin o'zing ham axir!

1976

¹ Juftgarchi — sher va arslonlarning yemish topishlarida vositachilik qiluvchi hayvon.

IZHOR

Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,
Qancha manzillarda tuzdim oshyon.
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,
Siylangan joyida azizdir inson.

Yurtim, senda ekan nasibam tugal,
Sen o'zing maskanim, sen o'zing shonim.
Sen onam, sen singlim, yorimsan azal,
Ey, jonim, jahonim — O'zbekistonim.

Ista, qismatinga o'zing ber barham,
Ista, yaxshi kunda nomim qilgil yod.
Mensiz ham mukammal ekan bu olam,
Mensiz ham baxtga yor ekan odamzod.

Yurtim, faqat sening qo'lingdan tutib,
Bolangday ergashib keta olsam, bas.
Sen piri komilsan, men senga muhib,
Seni tanimagan meni ham bilmas.

1978



TALPINAMIZ MANZILLAR SARI

Olis dengizdanmi yo yiroq tog'dan,
Bulutlar keldilar bilmam qay yoqdan,
U bahor, yoz bo'yi so'l ila sog'dan
Paxtakor xalqimga daf qila qoldi.

Ha, yashar tabiat gulduros solib,
Daryoga suv sochar tashna yer qolib,
Garchi paxtakor el hamisha g'olib,
Lekin ushbu safar tinchi yo'qoldi.

– Oyning u yarmida yomg'ir, qor yog'ar, –
Qimtinib Toyloqov beradi xabar,
Muxbir-chi, uqtirar: – Bizniki zafar,
Dovda Bobodehqon haqqini oldi!.

Paxta deb, ha, qachon tortmadik tashvish,
O'sha-o'sha yoz bu, o'sha-o'sha qish,
Bobolardan meros – bitmagan bu ish,
O'zbekning qay mahal bilagi toldi.

Yana zahmat chekar elda yosh-qari,
Yana talpinamiz manzillar sari,
Donolar dunyoni demish ko'pkari,
Boqing, O'zbekiston dadil ot soldi!



SAVOB

Avji saratonda hansirab, yonib,
Qovrilib olovli yo'llar taftida,
Muzdayin buloqdan suv ichgach qonib,
Hordiq olganmisan chinor tagida?

Ruhingda safo-yu taningda mador,
Umidbaxsh qo'shiqlar kuylaganmisan?
O'sha payt, o'sha on hech qursa bir bor
Chinorni kim ekkan – o'ylaganmisan?

Ro'baro' kelding sen toshqin daryoga,
Qolding sohil uzra chorasiz, giryon,
Lekin yo'lliqqanday ajib ro'yoga,
Qarshingda bir ko'prik bo'ldi namoyon.

Bamisli uzala tushgan xor vujud,
Ko'targay u turfa insonlar korin.
O'tding sen daryodan salomat va but,
Lekin o'yladingmi ko'prik me'morin?

O'rmonlar bag'rida sayr etgan sayyoh,
Changalzor qo'ynida sargardon ovchi,
Mo'jaz boshpanani ko'rdingmi nogoh,
Uni qoldirmishdir qay bir yo'lovchi.

Qoldirmish u senga qaro kun uchun,
Bir chimdim tuz bilan bir juft chaqmoq tosh.
O'ylab ko'rganmisan, bu himmat nechun,
O'ylab ko'rganmisan, kimdir u g'amdosh?

Ha, inson umrining kechmishi ajab,
Goh to'ng'ar, goho u yashnar qulf urib...
O, balki qaysi bir fidoyi sabab,
Yuribsan sen hayot nash'asin surib.

Ayt, axir o'zing ham to borsan sobit,
Kimsaga nasiba uzatganmisan?
Ko'changdan lapanglab o'tganda tobut,
Sen uni to'rt qadam kuzatganmisan?

Chorasiz bir inson uchragan damda,
Unsiz so'rog'iga qildingmi javob?
Ayt-chi, bilarmisan, yorug' olamda
Bularning barchasi atalgay savob.

Yo'q, yo'q, o'zga erur bid'at va karam,
Himmat-u saxovat tiriklarga xos.
Bobolar beta'ma qurgan dunyo ham,
Asli savob uchun qolgan bir meros.

Kimdir tuzar uni, kimdir buzadi,
Kimdir borini ham qiladi barbod.
Kimdir ta'ma bilan dunyo kezadi,
Kimdir o'ksuk dilni etadi obod.

Savob deb ingraydi dunyomiz behol,
Zordir u najotbaxsh hislar sehriga.
Janglarda toliqqan majruh zot misol,
Suyanib yashar u inson mehriga.

To hayot ekanmiz savobga zormiz,
Yilt etgan shu'ladan dillar fayziyob.
Goh g'amgin, goh esa umidga yormiz,
Yo'qolmasa deymiz dunyodan savob.

Axir uning bilan gullagay ochun,
Axir uning bilan umrlar shoyon.
Faqat savob borki, jahon bus-butun,
Faqat savob borki, azizdir Inson!



BOBUR

Men-ku oddiy odam,
Shundoq bo'lsa ham,
Shukr, bas, degancha g'animlarim bor.
Shart emas ularga ta'rif chinakam,
Biri jununsifat, birovi hushyor.

Biroviga yoqmas jindek jur'atim,
Biroviga yoqmas men yurgan yo'lak.
Nogoh biror joyda chiqsa suvratim,
Biri uxlay olmay qiynalsa kerak.

Biz shunday o'tamiz,
Ya'ni kun ko'rib...
Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.
Hayotning mana shu burjidan turib,
Men Sizni o'yladim, hazrati Bobur.

Siz – zobit, dastini cho'zgan dunyoga,
Siz – shoir, mangu bir alanga yoqqan.
Nainki bandalar, Sizning siymoga
Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.

Bahodirlik ichra yor Sizga Humoy,
Siz ulug' zotlarning izin bosgan er.
Nazmiy sajdagohda Sizga, hoynahoy,
Imomlikka o'tgay faqat Alisher.


Ha, yolg'iz she'r qoldi, boshqasi abas,
Yetti iqlim aro doston naqlingiz.
Ne baxt, parchin bo'lib toj degan qafas,
Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.

Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo,
Hanuz boqisharlar sho'rishga to'lib.
Shoirsiz, yaxshisi, qolingiz, Mirzo,
Mushfiq yurtigingizda bir shoir bo'lib.

ONA DEGAN NOM.

Deydilar, qahrli bahodirlar ham
Janglarda jon berar chog'i mardona,
Behad azoblarga chidab so'nggi dam,
Bitta so'z demishlar shivirlab: Ona.
Ulug' bir donishmand olamni sharhlab,
Axiyri tanibdi tuqqan elini.
Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,
Ona, deb atabdi ilk bor tilini.
Dunyo shoirlari Vatan sha'niga
Sifat axtarmishlar qator va qator,
Nihoyat, kelmishlar bitta ma'niga:
Ona Vatan deya bitmishlar ash'or.
Bisyor bo'lsa agar bo' ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug' olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda Ona degan nom!

19!



FURQAT NIDOSI

Men Vatandan ketmaganman,
Ayri tushganman xolos.
Ajragandek suv kecharda
Bir nafas tandin libos.
Yurt u yonda, men bu yonda,
O'rtada hijron seli,
Anga kiprik tashlamakka
Baytlarim bo'ldi asos.
O'ksib-o'ksib yig'ladim men,
Misli til bilmas go'dak,
Onaizor ko'kragidan
Ayrilib qolgan bexos.
Men Vatanda Xolmuhammad
O'g'li Zokirjon edim,
Furqatni deb nom qozondim,
Bunga hijron iqtibos.
So'nmagani ishq, o'lmagan qalb,
Bir uyum tuproq bo'lib,
Sarzamindan bosh ko'tardi,
Ushbuga qabrim qiyos.
Kim Vatan deb yona-yona
Kul bo'lib bitmish magar,
O't-olovni mendan olsin,
O't-olov mendan meros.
Shoiringni yod etarda, o'zbekim,
Sendan o'tinch:
Bir-biringga qil muruvvat,
Bir-biring bag'ringga bos!

1987



QOAR DARYO

Ming yillar qa'ridan kelar karvoning,
Chorlar ushalmagan orzu-armoning.
Jahonda yagona O'zbekistonsan,
Ma'rifat, iste'dod bo'lg'ay sarboning.

Oqar daryolaring hayqirib oqsin,
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.
Do'stga do'st, bag'ri keng yashnagan diyor,
Senga ham to abad tangri bo'lsin yor!

Uyg'onish yellari esmoqda takror,
Tabarruk ajdodlar ruhi senga yor,
Ulug' daholari paydo bo'lgan chog'
Olamni o'ziga qaratgan diyor!

Oqar daryolaring hayqirib oqsin,
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.
Do'stga do'st, bag'ri keng yashnagan diyor,
Senga ham to abad tangri bo'lsin yor!

Bu zamin kengga keng, torlarga dir tor,
Ko'klarga uchgudek qanotlaring bor.
Inon o'z kuchingga, jon O'zbekiston!
Parvozing hur bo'lg'ay, erking barqaror.

Oqar daryolaring hayqirib oqsin,
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.
Do'stga do'st, bag'ri keng yashnagan diyor,
Senga ham to abad tangri bo'lsin yor!

1991-yil, yanvar -
1992-yil, dekabr



BURGUT

Yosh burgut uchmoqda ko'kda shiddatkor,
Kumush bulutlarning to'zg'itib parin.
Uchmoqda, qalbida mag'rur ishonch bor,
Qaqshagan qoyalar, cho'qqilar sari
Uchmoqda! Qayerga? Cho'qqiga! Nechun?
Burgutning shiddatin uyg'otgan nima?
Bo'ronli dargohda ne kutar uni,
Oudratli qanotin qo'zg'atgan nima?
«O'ynoqi shamollar ila basma-bas,
Ana, qo'ndi burgut eng yuksak joyga!
Cho'qqi uzra mag'rur turdi-yu birpas,
Yana bo'ron misol qo'zg'aldi. Qayga?
Axir, ne bo'lardi bersang, tabiat,
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad!

1964



*Umid bilan suqilgan tayoq,
Bir kun berar meva-yu yaproq.*

Gyote

Uchqur xayot sohibi yigit
Yashar edi xilvat qishloqda.
Uni bir kun yetaklab umid:
«Xayr, — dedi ona dargohga.
– Olim bo'lib qaytay, qishlog'im...
Kechir, qolib ketsam agarda».
Uni yosh va bo'ronli qalbi
Olib ketdi olis shaharga.

Odamlar-chi, ba'zi odamlar
Qishloq aro tarqatdilar gap:
«Hoy, falonchi, eshitdingmi, a,
Huv falonchi daydi bo'lmish zab.
Tagi past-da, qurt bor boshida,
Tortdi falon qarindoshiga...»

Yillar o'tdi... Barg yozdi axir
Umid bilan suqilgan tayoq.
Sharaf senga, sabot va aql,
Sharaf senga, mehnat va idrok!
Olim bo'lib qaytdi u, balli,
Cho'llariga suv chiqargali...

Odamlar-chi, endi odamlar
Bir-biridan so'rar suyunchi:
«Hoy, birodar, eshitdingmi, a,
Olim bo'lmish o'sha falonchi.
Yoshlikda ham oqil edi, ha,
Tortgan edi bizga, ha, bizga...»

ONA TILIMGA

Ming yillarkim, bulbul kalomi
O'zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho'rlik to'tining holi
O'zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman.
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman...

1965



TEMIR O DAM

Bir haykal turibdi,
U – Robot emish,
Temirdan yasalgan odam timsoli.
Ilmda eng so'nggi kashfiyot emish,
Aqlli zot emish, qusurdan xoli.
Shaxmat ham o'ynarmish,
Yer ham qazarmish.
Rosmana yuvarmish yuz-u qo'lini.
Hadis-u hisobdan adashmas emish,
Hattoki sanarmish Somon yo'lini.
Yonida xaloyiq hayratda turar:
– Qarangiz, naqadar aqlli, mumtoz!
Xullaski, olamda kashfiyot derlar,
Kashfiyot emas bu, kechiring, ustoz.
Tilsimni bilmayman, ammo anchayin
Odatim tark etib, ko'krak keraman!
Men sizga temirning xuddi shundayin
Ajib bir nusxasin topib beraman.
U ham ishlay bilar, uning qoshida
Sizning temiringiz ojiz bir buyum.
U ham sanay bilar, uning boshida
Aljabr usuli uyum va uyum.
Balki u donodir beqiyos, yakka,
Balki yo'q, uning-chun biror muammo;
Balki u hech qanday temir-tersakka
A'llo vujudini egmaydi, ammo,
Ustoz, qalbi yo'qdir uning ham, hayhot,
Na nafrat, na ishqni tanlaydi u ham.
Uning ham ko'zida chaqnamas hayot,
Munis boqishlarni anglamas u ham.
U ham to'lg'anolmas,
ingramas,
kulmas,

Yig'lagan go'dakni yupatolmas ul.
U ham yulduzlarning hidini bilmas,
Bag'rini tirnamas so'layotgan gul.
Kimsaning mehridan, balki, o, balki
Sizning ter, iringiz bo'lar minnatdor.
Aziz do'st, mehrni bilmas bu hali,
Do'st kutib yo'llarga chiqmas intizor.
Dunyo-yu odamlar taqdiri zarra
Tashvishga solmagay, yo'q zo'r-u zori.
Tashvishga soladi na qo'shiq va na
Mening yuragimda nimalar bori.
Balki temirlar ham yig'laydi chindan,
Bu-chi, yig'lay olmas, aylangan toshga!
Kimdir u?
Kimdir u? Balki u menman?!
Balki u sizdirsiz?
Balki u boshqa...
Hayotning poyonsiz ummoni ichra
Bor shunday g'ariblar — temirlar hissiz.
Va lekin o'zlarin temirmas sira,
Muhtaram inson deb atarlar, esiz...
Shundaylar bo'lmasa, azaldan tuproq.
Yashnardi tag'in ham go'zal-u mumtoz.
Temir Odam yasab yurguncha, ko'proq
«Jonli temir»larni o'ylangiz, ustoz.

1965



UYQU

Odamlar uxlaydi o'n yil, o'n besh yil',
Sezmasdan, sevmasdan, hissiz va mudroq.
Ba'zida, ochiq gap, o'rtansa ko'ngil
Uxlagim keladi mening ham uzoq.
Mayliga, do'stlarim unutsin sekin,
Umid ham uzsinar alvido ayta.
Mayliga, olis yil uxlayin, lekin
Eng qutlug' saharda ko'z ochsam qayta,
Balki yer yuzida qolmas edi g'am,
Bundan ham yorug'roq bo'lardi dunyo.
Faqat tabassumda yashnardi olam,
Serjild kitoblarda yozganday go'yo.
Yomon tush ko'rmasdik saharlar qalqib,
Bosh egib qaytmasdik uyimizga kech.
Dunyoda yovuzlar qolmasdi balki,
Razillar, pastkashlar bo'lmas edi hech.
Balki tinchlanardi notinch asrimiz –
Ko'ksidan qon silqqan yarador ohu.
Uning dardlarini etyapsizmi his,
Qanday asr o'zi, birodarlar, bu?!
Urush-u falokat, nizo-yu ta'qib
Tinmaydi, tinmaydi, tinmaydi sira.
Qani, kim shodlanar asrga boqib?
Qani, kim ataydi uni bokira?!
Asrim, o'sha olis oy qorasini
Sanab bo'lguningcha bir zum tolmading.
Biroq odamzodning dil yarasini
Sanab yetolmading, yo'q, yetolmading.
Asrim, samolarda yoqolding chiroq,
Yulduz qilib otiding fazoga o'zni.

¹ Letargiya uyquasi nazarda tutiladi.

Qo'zg'ata olmading o'rnidan biroq
Askar yelkasida turgan yulduzni.
Asrim, izga solding ummonlar kuchin,
Yaratmak istading so'nmas bir chiroy,
Biroq gulzoringni toptamoq uchun
Qaydadir razilga berib qo'yding joy.
Mitti farzand bo'lib, bir dilband bo'lib,
Asrim, seni baxtda ko'rmoq istayman.
Va lekin ba'zida uyquga cho'mib,
Sendan ko'zlarimni yummoq istayman.
Ammo bormi imkon bunday uyquga,
Kurashga yaralgan jafokash inson,
Har qanday kurash ham hayotdir unga,
Har qanday uyqu ham — o'lim har qachon!

1965



ONAJON

*(Onam Turdi Erdona Karvon
qizi xotirasiga)*

I

Necha kunki yo'q oromim,
Kelolmayman hushimga.
Onajonim kechalari
Kirib chiqar tushimga.
Qo'llarida oq yelpug'ich
Oy nurida yaltirar.
Onajonim imlab meni
Ooshlariga chaqirar.
Keltirarlar goho beshik,
Ko'zlarida hayajon.
Yotar payting bo'ldi-ku der,
Kela qol, der, bolajon.
Qaylargadir yuguraman,
Fig'onimdan chiqar dud.
Yig'lama, deb qo'llaringa
Tutqazalar so'ng tobut.
Tongda ruhsiz ko'z ochaman,
Qovurilar tanda jon.
Onajonim, bunday qilma,
Bunday qilma, onajon.
Axir o'zing der eding-ku
Silab o'ksuk boshimni:
– Endi senga bersin umr,
Senga bersin yoshimni,
Afsus, o'zing erta ketding,
Erta ketding olamdan.
Ukalarim bag'rim ezar,
Ajradi deb onamdan.

Bevaqt xazon bo'lmay har kim
Yashab o'tsin dunyoda.
Onajonim, har kim oshin
Oshab o'tsin dunyoda.
Garchi fano har kimsaga
Azaliy bir qismatdir.
Lekin, ona, tiriklik ham
Bilsang, yarim hikmatdir.
Tushlarimda, mayli, boshim
Silab turgin, onajon.
Qolganlarga endi umr
Tilab turgin, onajon.

II

U kun chetda oh chekardim
G'ussalarning dastidan.
Sen otamga pul beribsan
Yostig'ingning ostidan.
Aytibsanki, onasizlik
Kelmasin hech o'yiga.
Sarf qilingiz, menga emas,
Abdullaning to'yiga.
O, o'g'lingga sen shafqatni
Bilarding-ku, onajon.
Bundan ko'ra bag'rim o'ysang
Bo'lardi-ku, onajon.
Zarragina rahm etgali
Sabring menga yo'qmidi?
Onajonim, bundan o'zga
Jabring menga yo'qmidi?
Yo'qmidi hech o'zga gaping.
Nota qilib so'ylasang.
Nahot, axir so'nggi dam ham
Farzandingni o'ylasang.
Axir orzu qochib ketmas,
Bitkazar-ku tiriklar.
Onajonim, bir kunini
O'tkazar-ku tiriklar.
Unutilar g'ussalar ham,

Orzular ham cho'zar bo'y.
Onajonim, balki bir kun
Aytganingday bo'lar to'y.
Balki sening qabring uzra
Ko'karganda gui, chechak,
Ostonamga qadam qo'yar
Sen istagan kelinchak.
Kimdir uning yo'llariga
Balki gul ham sochadi.
Balki munis opajonim
Kel, deb, quchoq ochadi.
Balki do'stlar davrasida
Kamim bo'lmas hech qachon.
Lekin seni o'sha damda
Qaydan topay, onajon.

III

Esimdadir, titrar edim
G'amgin, bolish pastida.
Kitobimni ko'rdim nogoh
Boshginangning ostida.
Toshday qotdim o'shal oni
Bor toqatdan ayrilib.
— Shoir o'g'lim, — deding menga
Sekingina qayrilib.
Onajonim, so'ng bor menga
Nafas qilding u zamon.
Shoir bo'lgin, deya balki
Havas qilding u zamon.
Onajonim, balki men ham
Bir kun shavqqa to'larman.
Balki men ham aytganingday
Bir kun shoir bo'larman.
Kuylay desam hurmatingni
Ushbu kunda tilim lol.
Balki faqat shu sababli
Shoir bo'lsam ehtimol.
Balki sarson-arosatda
Qolib ketmas bu tanim,

Kamolimni ko'rar balkim
Yurtim, ona Vatanim.
Payti kelib to'lar bir kun
Paymona ham beomon.
Kuzatarlar meni ham so'ng
Senga tomon, sen tomon.
Balki u kun boshim uzra
Do'stlar bosh ham egadir.
O'sha damgi iqbolim ham,
Onajonim, sengadir.
Dilda neki jur'atim bor,
Dilda neki hayajon,
Bari, bari senga bo'lsin,
Senga bo'lsin, onajon.
Senga bo'lsin bor hayotim,
Nomim, shonim bir yo'fa.
Xotirangga ushbu she'rin
Yozdi o'g'ling Abdulla.

1966



ALVIDO, USTOZ

(G'afur G'ulom xotirasiga)

«Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh...»
Sarbonim, qo'lingdan ketdimikan erk,
Sarbonim, ne uchun ko'tarmaysan bosh.

So'qir, yovuz o'lim, ming dod dastingdan,
Zulmatday kirdingmi she'r maydoniga.
Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan
O'zbek she'riyatini pahlavoniga.

Olis fazolarga ketgan ham qaytar,
Botguvchi quyosh ham chiqar bilmay had.
Nahot ona xalqim alvido aytar
Bugun G'afur G'ulom boshida abad?

Ilk bora jigarim silqidi balkim,
Lol qotgan tilimga kelmadi kalom.
Yig'la, onajonim, ey ona xalqim,
Bugun yo'q qoshingda farzandi G'ulom.

Dardli musiqalar, INGRANGIZ bir-bir,
O'zing ham yig'la, ey, dilda qotgan g'am.
Yorug' bu olamda bormikan, axir
Shoir vafotidan ortiqroq motam!

Zor yig'lab navosiz qolmagay dunyo,
O'zi chora topmay yig'lagay alam.
Shogirdlar qo'lidan tushmagay aslo
Sening qo'llaringdan tushgan shu qalam.

1966

BAHOR SHAMOLI

Bahor kelayotir,
Toza, musaffo.
Moviy kengliklarda o'ynaydi shamol.
Daralar qo'ynida zangor bir havo,
Tumanli shahr ichra yotmoqlik malol.

Qoyalar ko'ksida shodmon, beqayg'u,
Oniy umri bilan sollanar chechak.
Bahor bu — eng toza shabbodadir bu,
Bahor bu — eng toza shamoldir demak.

Kengliklar bag'riga uraman o'zni,
Ko'zimga ko'ringay dilbar diyorim.
Go'dak nafasidek yupatar yuzni
Qish bo'yi intizor kutgan bahorim.

Bahor-ku o'tadi shamoldek shitob,
Mayli, o'tajak u va o'tar bo'lsin.
Azizim, umringda havo bo'lsin sof,
Umring shamollari muattar bo'lsin.

1966



SENGA

Vatanim deb seni uyg'ondim!

Hamid Olimjon

Mening ham bor do'st-u qarog'im,
Sha'nlariga she'rlar kuyladim.
Lekin tanho quvongan chog'im,
Sirdoshim deb seni o'yladim.

Bedard emas umr ham aslo,
Hasratlardan goho so'yladim.
Shubha ichra qolganda tanho,
G'amdoshim deb seni o'yladim.

Qucholmasman men seni hargiz,
Sen osmonsan, men-chi, zarra tan.
Qiblagohim, yupanchim yolg'iz,
Sen barhayot onamsan, Vatan...

1967

PAHLAVON MAHMUD QABRI QOSHIDA

Madorsiz qo'limga qalam olganda,
Yo uzoq yo'llarda horib-tolganda,
Bir nomard qoshida ojiz qolganda,
Pahlavon Mahmuddan so'radim madad.

Yulduzlar misoli kulganda ruhim,
Bo'ronli hislarga to'lganda ruhim,
Ba'zan she'r ustida so'lganda ruhim,
Pahlavon Mahmuddan so'radim madad.

Kuyladim, fazoga naqlim yetmadi,
O'yladim, dunyoga aqlim yetmadi,
Qay ishga qo'l urdim, shahdim yetmadi,
Pahlavon Mahmuddan so'radim madad.

Men uchun xilxona bo'lganda olam,
Gumbazlar ostidan chiqdi bir alam:
— Hayotsan, bunchalar faryod aylama,
Men o'zim madadga zorman-ku, bolam.

1967



ALISHERNING ONASI

(Bolalarga)

Bilmam, qanday ayol bo'lgan
Alisherning onasi.
Balki uning aqliga ham
Lol bo'lgan zamonasi.
Balki uning ko'zlarida
Bo'lgan og'ir bir xayol.
Balki g'amgin bir zotdir u,
Balki sho'xchan bir ayol.
Balki buyuk tarzandiga
Terib kelgan chechaklar.
Balki tunlar unga bedor
Aytib bergan ertaklar.
Mayliga, u kim bo'lmasin,
Yolg'iz bir so'z ma'nosi:
Alisherning onasi u,
Navoiyning onasi.

1968



KENGLIK NUQTASI

Hisor tog'larining naq etagida
Makon bor xushhavo, sarbaland, yuksak.
Ajib bir osmon bu, osmon tagida,
Yulduzlar qo'l cho'zsang shundoq yetgudek.
Ona tabiatning xush san'ati bu,
Inson va yulduzlar saltanati bu.

Bu yerdan o'tibdi yerning belbog'i,
Beqasam to'n demak bu rangin diyor.
Falakda yulduzlar chaqnagan chog'i
Nishondor o'zbekning surati tayyor.
Ulug'bek nomida zo'r koshona bu,
Dunyoda beshdan bir rasadxona bu.

Bu yerga termulib parishon dunyo
To'g'rilab oladi qo'ida soatin.
Ne ajab, payt kelib aytoisak hatto
Jumlati jahonning xush saodatin.
Shundoq qutlug' joy bu, qutlug' makon bu,
Ne qutlug', jonajon O'zbekiston bu.

Atrofdagi vodiylar tovlanar hal-hal,
Ming yillik chinorlar ko'kka boqqan tek.
Bu yerda, vo ajab, yuz yillar avval
Dunyoga kelibdi sulton Ulug'bek.
Ajib tasodif yo shahri Humoy bu,
Hoynahoy, dahosi tuganmas joy bu.

Oqshom tushmasidan bunda besabr
O'nlab ko'z termular osmon-falakka.
Bu Zuhal, mana bu Dubbi Akbardir,
Zuhraoy piqirlar bir chetda yakka.
Yulduzlar vasli bu, vasli jahon bu,
Oshiq munajjimga ayshi nishon bu.

Tong otib chiqar-ku ishboshi oftob,
Qoshida bosh egib qolma tag'in jim.
Zamon shiddatini qilolmay hisob
Yer chizib turibdi yosh bir munajjim.
Azizim, g'am chekma, vahm-u gumon bu,
Oxir tizginingga kelgay zamon bu.

Har zumda dunyoning burchaklariga
Xabarlar jo'naydi qator va qator.
Xohlasang, uchaver Marsdan nariga,
Xohlasang, falakning u burchiga bor.
Qo'lingda tap-tayyor haddi hisob bu,
Haddi hisob bergan shahri Kitob bu.

Qutlug' joy ko'p erur ushbu dunyoda,
Yulduzni ko'zlagan lochin ham talay.
Har nechuk shu soat, shu soniyada,
Ona yurt, men seni sozimga solay.
Na maqtov, na olqish, na puch zanah bu,
Ona yurt qalbinga solgan farah bu.

Kezdim bu yerlarda tanho shodumon,
Yulduzlarga yaqin, ko'zlardan yiroq.
Qalqib turgan bilan teppamda osmon,
Anglab yetarmidim ma'nosin biroq.
Har nechuk bilganim, yulduzfishon bu,
Uyg'oq Vatanimdan bitta nishon bu.

Bor bo'l, tafakkurga yor bo'lgan diyor,
Bor bo'l, yulduzli tun, oqshomlar mayin.
Bitta munajjiming misoli bedor,
Ona yurt, men senga maftun o'tayin.
Balki shoirlik ham yaxshi otdir bu,
Ulug'bek yurtidan xotirotdir bu.



O'RMON

Yalang'och, sarg'aygan, kimsasiz o'rmon,
Boshingda charx urar kuzgi dovullar.
Sening yaproqlaring esa bearmon
Bahor qo'shig'ini aytib shovullar.

Archazor ortidan sayrar bo'g'iq qush,
Ufqlar so'ngida qora bir ro'yo.
Uzoq-uzoqlarda g'amgin va behush
Cho'zilib yotibdi ulkan bir daryo.

O'rmon qo'ynidadir seyr ila jodu,
Bundadir xayolning sokin onlari.
Naqadar suluvsan, naqadar inju,
Ey, sen, shimol yurtin cho'ng o'rmonlari.

Sening quchog'ingda oqshomlar mayin -
Tuydim tuyg'ularning soz nash'asini,
Za'faron zulfingga taqib ketayin
Olis cho'llarimning binatshasini.

1970



CHORLASH

Do'sti g'arib, kel, qo'lingni tut,
Yuragingda yoqay alanga.
Kel, bir zumga dunyoni unut,
Ko'tarayin seni balandga.
Pastda qolsin nobakor xilqat,
Pastda qolsin tanbal bulutlar.
Yuragingda chaqnasin faqat
Yorug' xayol, samoviy o'tlar.
Yuksaklarda charx urib aylan,
Ruhing mangu tursin yorishib,
O'lganda ham vujuding bilan
Ketmagaysan yerga qorishib.

1971





Bolalik yillarim eslayman oz-oz,
Bosiq uyqu ichra yotganda olam.
Tonglar qulog'imga kelardi ovoz:
«G'aflatda yotmagil, erkatoiy bolam».
U jaji bahorning sho'x sasi edi,
U munis onamning nafasi edi.

Yillar o'tdi, bir oz uyg'aydik bu kun,
Vatan xizmatiga bir qadar dastyor.
Olam tashvishidan yurakda to'lqin,
Vatan qudratidan qalbda g'urur bor.
Endi sen chorlasang, toki tanda jon,
Labbay deyajakman, Vatan – onajon.

1972



QO'SHIQ

Qo'shiq uchar edi ko'kda bearmon,
Uchardi yangratib osmon, ufqni.
Badkirdor odamlar bir kun beomon
Yarador qildilar qo'shiqni.
Majruh turna misol qulab tushdi u,
Shodlik qulab tushdi arshi a'lodan.
Mana, ming yillarkim, qo'shiq serqayg'u,
Hamon hasrat chekar o'sha balodan.
Shikasta yurak bu – chekmasin ozor,
Jahon shoirlari turar qoshida.
Chollar duo qilsa, onalar bedor
Alla aytib chiqar uning boshida.
Hammaning armoni — sog'aysin qo'shiq,
Zarrin qanotidan chevrilsin osmon.
Shodlik bilan to'lsin to'rttala ufq,
Kulgi bilan balqsin bu qadim jahon.
Bedor termulaman qo'shiqqa men ham,
Mayli, hasratida rangim sarg'aysin.
Balki ko'rolmasmiz biz uni xurram,
Bolalar baxtiga qo'shiq sog'aysin...



NIYAT

Umrim kitobidan bir varaq o'tdi,
Bir sahfa shodlig-u bir sahfa zahmat.
Kimdir do'stim deya qo'lini tutdi,
Kimningdir dastida sangi malomat.

Hayot degani shu, qalbning tubida
Qolgusi shodlik ham, qayg'u ham qator.
Va lekin umrimni avval-so'ngida
Vatansiz tasavvur etmog'im dushvor.

Sokin-u ulug'vor bong urar soat,
O'ylarim charog'in yana yoqurman.
Yangi yil daricha qoqqan bu fursat
O'lkam kamoliga xushnud boqurman.

Bormi undan bo'lak menga hech shodlik,
Bormi undan o'zga tole va a'mol?
Orzum ne, ne baxtga bo'loldim molik?
Undan ayri baxtni etdimmi xayol?

Dunyo bepoyondir, turfadir Inson,
Yulduzlar misoli beaded qismat.
Lekin baxtga oshyon bo'lsin bu jahon,
Insonga osoyish yor bo'lsin faqat.

Soatning intiho bongi ham tindi,
Qoldi yana bir yil orqada ko'rkam.
Qani, qo'llaringni uzatgil endi,
Sevikli diyorim, navqiron o'lkam!

1973



GENERAL

Muzaffar zotlarga motam nojoiz,
Ularning haqqidir faqat iftixor.
Biz mag'rur bosh egsak o'shalar bois,
Ularga loyiqdir eng oliy ash'or.

Jasur najotkorlar saf — qatorida,
O'zbek yigitining nomi ham kushod.
Tinchlik ayyomining bu nahorida
Sobir og'amizni etmoqdamiz yod.

Vatan degan chog'da oddiy oshiyon,
O'lan to'shagini anglaganlar mo'l.
Madad so'raganda chorasiz jahon,
Siz Toshkent bag'ridan uzatgansiz qo'l.

Qaysi bir mamlakat, qaysi sarhadda
Najotkor do'stlarni zor kutgan tuproq.
Murg'ak xayolimda shundoq holatda
Tasavvur etoldim men Sizni ko'proq.

Bani odam uchun najot axtarib,
Jon bergan shahidlar ruhiga qasam,
Odamzod yalovday yurgay ko'tarib
O'zbekning shu qatra toza qonin ham.

Bilmadim u soat, u so'nggi fursat
Nelar kechgan ekan Sizning xayoldan.
Balki, Ona Diyor ko'kida qat-qat
Varraklar ko'rgansiz o'zg'ir shamoldan.

Balki, so'nggi dam ham umidga to'liq,
Yorug' bu kunlarni etgansiz xayol.

Mening beshigimga otilgan ul o'q
Sizning umringizni uzgan ehtimol.

Buyuk Ajdod bermish bus-butun g'urur
Va qiyiq ko'zlarda meros jasorat.
Jasur saflar aro ot surib mag'rur,
Eng g'addor yovlarni etgansiz g'orat.

Sizdek farzandlarga sharafdir pesha,
Sizga manguликning xush taronasi.
Sizdek o'g'lonlarni yodlar hamisha
Munis O'zbekiston — mardlar onasi.

1975



BAHOR SENIKIDIR

(Qizim Yulduzga)

Bahor senikidir,
Yugur entikib,
Yugur adirlarning lolazoriga.
Men esa quvonay ko'zimni tikib,
Tog'larning hayotbaxsh, toza qoriga.
Bahor senikidir,
Tolma yelishdan,
Yugur, sochlaringga bargaklar taqib.
Men esa quvonay qahraton qishdan
Omon chiqa olgan ildizga boqib.

1970



YANVAR

Yana dalalarning shovqini tindi,
Yana raqqosadek tindi momiq qor,
Yanvar oqshomlari ayvonda endi
Xayol surmaklikni etding ixtiyor.

Bu — oyna ko'l emas, qish — bu, zamharir,
Ko'ngil tublarida sirli xayollar.
Borliq ham misoli o'ychan musawvir,
Naqsh etmish derazang uzra savollar.

Zangori bahorni yotar tush ko'rib,
Qaydadir — ummonlar tubida quyosh.
Momo qish oq jujun to'qir o'ltirib,
Kelinchak zaminga yagona sirdosh.

Oppoq ro'moliga o'rab kurtagin
Uxlaydi qish bo'yi bu zangor chiroy.
Faqat, orom ol, deb so'ylab ertagin,
Kezadi dalalar tepasida oy...

1978



XAYRIXOH

Hamdam axtaradi har qanday odam,
Do'stim deb ataydi topsa begumon.
Do'st izlab behuda kezguncha olam,
Oyog'ing ostiga boqsang-chi, inson!
Munis ko'zlarini tikib, mo'ltirab,
Bolakay yuzingdan uzmaydi nigoh.
Unda ne murod bor? Unda ne talab?
U senga some'dir, senga xayrixoh.
Izingdan termulib qoldi kekxa choi,
Ko'zda tavajjuhi, duosi tilda.
U senga tiladi baraka, iqbol,
Yana bir xayrixoh topibsan elda.
Sen g'anim atagan qay bitta inson
Sen uchun qaydadir chekdi tanho oh.
O'sha hasrat haqqi, keltirgum imon,
U senga xayrixoh, chindan xayrixoh.
Xayrixoh odamlar beta'ma hamdam,
Olam bir butundir shu inoqlikdan.
Axir muhabbat ham, axir do'stlik ham
Boshlangan emasmi xayrixohlikdan?
Ular bor — ruhingga g'am kelmas g'olib,
Mayli, gado bo'lgil, mayli, bo'lgil shoh.
Gar do'st yiqitsa ham oyog'ing chajib,
Boshingni silaydi o'sha xayrixoh.



DIYOR

Ko'pdir bu dunyoda ellar, elatlar,
Qadim va noqadim xalqlar, millatlar.
Har biri o'z tili, o'z eli bilan,
El ichra har biri o'z fe'li bilan,
Rang-barang suratli odamlar yashar,
Ishlashar, kuylashar hamda kurashar.
Balki kimdir kimni uchratmas minba'd,
Ayricha namoyon shodlik va kulfat.
To'ylar davom etar, bola tug'ilar,
Cho'qqi zabt etilar, kitob o'qilar.
Chorrahalar tizg'in, bozorlar g'ujg'on,
Ulfatlar, majlislar, yig'in, olomon...
Har biri go'yoki o'z siri bilan,
Aloqasi yo'qday bir-biri bilan.
Mana shu turfa xil ellar barini,
Ulfatni, yig'inni, yoshni, qarini
Birlashtirib turar bir nom daf'atan,
U ona diyordir, jonajon Vatan!
Ko'pdir bu dunyoda kentlar, ovullar,
Ko'chalar, shaharlar, bekatlar, yo'llar.
Ko'mir sepilganday tuproqlar ko'rdim,
Ne-ne vodiylar-u qumloqlar ko'rdim.
Uzoq qutb yoqda muzlar qarsillar,
Janub tog'larida gulxan charsillar.
O'zicha har biri o'zga ma'vodir,
O'zicha har biri ajib dunyodir.
Har biri go'yoki o'z siri bilan,
Aloqasi yo'qday bir-biri bilan.
Ammo shu turfa xil, rangdor tuproqni,
Kentlar va ovullar, shahr-u qishloqni
Tutashtirab turar bir nom daf'atan,
U ona diyordir, jonajon Vatan!

YOSH RASSOMLARGA

(Javlon Umarbekovga)

Bamisi Boysunda boychechak gullab,
Toshkent tomlarida yondi qizg'aldoq.
Yo tovus patlarin yoyganday xillab,
Namoyon bo'ldingiz ayni kutgan choq.

Davrada o'rningiz, o'ting, marhabo,
Yurtimning g'aroyib o'g'lonlari Siz.
Qayda yurgandingiz o'ychan va shaydo,
O'zbek san'atining imkonlari Siz.

Hozircha nomingiz bilmaydi jahon,
Hozircha kelinni chizmoqdan siz shod.
Bilmaysiz, yelkangiz osha shodumon,
Kuzatib turganin Muzahhib, Behzod.

Sizga mushtog hali turfa ohanglar,
Ustoz Chingiz Ahmar bor bu bo'stonda.
Bilmaysiz, siz chetdan axtargan ranglar
Ko'milib yotganin Chag'aniyonda.

Sizni kutib turar hali ko'p ma'ni
Dehqonning kiprigi uzra qo'ngan chang.
Sizni kutib turar oppoq paxtaning
Bag'rida yashirin qancha sirli rang.

Buguncha asliga o'xshasa surat,
Zarrin ramkalarga quvnab solgaysiz.
Yuz rangda tovlanib kelganda shuhrat,
Suvratin chizolmay shoshib qolgaysiz.

Uzun sochingizga bir kun oq tushar,
Sezmay ham qolarsiz umr o'tganin,

Chizgan rasmingizga o'g'lingiz besar
Notanish bo'yoqni chaplab ketganin.

Mayli, yursangiz ham darvishday kezib,
Bo'yab chiqsangiz ham mayli jahonni,
Faqat bir o'tinch bor, bergaysiz chizib,
Onamiz suvratı — O'zbekistonni.

1979



QO'RIQXONA

Asraymiz o'simlik xillarin tayin,
Asraymiz hayvonlar kamyob zotini.
Hatto atroflarin o'rab atayin,
Ko'riqxona deymiz so'ngra otini.

Sayoq ovchilarga u yon yo'l bo'lsin,
Jarima solamiz, qamaymiz hatto.
To u jonzotlarni tinchiga qo'ysin,
Qirilib bitmasin tirik dunyo to.

Munis mavjudotga mehr-u shafqat bu,
Bu inson qalbida balqqan hamiyat.
To yashar qaydadir bu yanglig' tuyg'u,
Har nechuk, qirilib ketmas tabiat.

Olamda ko'p narsa kamyob bir qadar,
Ne-ne tuyg'ular ham kamyobdir, alhol.
Men derdim, sof qalbni uchratgan safar,
Darhol o'rab oling atrofin, darhol.

Insof yo'qolmasin, o'rang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob.

Oqibatni asrang, oqibat go'yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo
Otashga duch kelgan polapon misol.

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to -
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq,
Toki avlodlarga yetolsin omon.

Ezgu, latif hislar bo'lmasin tahqir,
Bulbulni boyqushga topshirmang zinhor.
Xudbin va dilozor kimsaning, axir,
Og'zi qon yirtqichdan qanday farqi bor?!

To'qayga o't ketsa yongay bus-butun,
Adolat borliqqa yolg'iz onadir.
Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun
Yovuzlikdan zada Qo'riqxonadir.

1980



UCHINCHI ODAM

Insonlar bir-birin yursa ardoqlab,
O'rtada vosita asli ziyoda.
Har ikki Odamni turguvchi bog'lab —
Uchinchi Odam bor lekin dunyoda.

Uchinchi Odam bu — o'zi bir xilqat,
O'shadir dunyoga ilk qo'ygan qadam.
Ikkovlon o'ljani keltirgan fursat,
O'choqqa o't yoqqan uchinchi Odam.

Payg'ambar shaklida u sohib qutqu
Bandaga xudoni dalolat etgan.
Ne o'jar shohlardan elchi bo'lib u
Goho bosh keltirgan, goh boshi ketgan.

Muhabbat bobida u-ku bir mahram,
Uningsiz visol ham yo'qdir aslida.
Shoirning yor uchun bitgan satrin ham
Yod olgan o'shadir — she'rxon shaklida.

Uning bir unvoni hakamdir azal,
Shunchalar muhtaram uchinchi bu zot.
Toki bu olamda mehr notugal,
Men faqat o'shandan qo'rqaman, hayhot!

Axir u emasmi do'stni g'anim-u
G'animni do'st qilib qo'yguvchi odam.
Magar u beshafqat boshlasa g'ulu,
Dunyoga g'avg'olar solgay chinakam.

Ro'yoni rost desa, mittini kabir,
Janubni Sharq desa aylab imolar,
Kufri dunyoda oz emas, axir,
O'shaning izmidan yurgan siymolar.

Uchinchi bu odam tirikdir toki,
Dunyoning chayqalib turmog'i ayon.
Serg'alva asrda bu zot hattoki
Saltanat shaklida bo'lar namoyon.

Olamda, aslida, bordir do'st va yov!
Orzum shul: pokiza ko'rsam vijdonni.
Kimsaning nomidan kimsaga birov
Sotib yubormasa, deyman, imonni.

Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat,
Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.
U – menmi, u – senmi, kim bo'lma, faqat
Senga insof bersin, uchinchi odam!



ASRIMIZ ODAMI

Mening ko'z o'ngimda jonlanar tarix,
G'amlardan to'qilgan shu ko'hna olam.
Asrlar birma-bir o'tar va axir
Yuksalar qarshimda eng baxtli odam.
Yuksalar-u, shu dam chopar, urinar,
Talpinar qaygadir bilmasdan tinim.
Baxtining yonida g'ami ko'rinar,
G'ami ko'rinadi baxtida uning.
Bilagida garchand yetarli kuchi,
Boyluk ergashsa-da garchand ortidan,
Uning chehrasida tashvish bor, nechun?
Nechun u ayrilmish halovatidan?
Goh bemor boshida jarroh bo'lib u
«Taqdiri azal»ga ko'rsatsa kuchin,
Goho bir dovyurak sayyoh bo'lib u
Sovuq Arktikaga uradi to'shin.
Dam og'ir xayolga bo'lur zanjirband,
Dam qo'shiq to'qiydi u yona-yona.
Intilar yulduzlar tumaniga dam,
Dam oyning yonida bo'lar parvona.
U nima istaydi? Shon-u shavkatmi —
Yulduzlardan baland, kundan purziyo?
U nima istaydi? Tengsiz qudratmi,
Oyog'i ostida yotsinmi dunyo?!
U nima istaydi? Balki istagi —
Uning tegrasida aylansin olam?
O, do'stim, savolning yo'qdir keragi,
U istaydi buning hammasini ham!
Odamlar o'tdilar bir vaqt, bir zamon,
O'tdilar eng oddiy baxtdan ham yiroq.
Yagona orzusi edi parcha non,

Eng buyuk armoni — ozod yashamoq!
Odamlar o'tdilar bir vaqt, bir zamon,
Ha, yashab o'tdilar, endi-chi, mana:
O'zi bandi bo'lgan olam ustidan
Hokim bo'lmoqni u istar yagona!

1964



DORBOZ

Bulutlarga yondosh,
Osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida
Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.
Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o'ktam.
Biz-chi, eh... ba'zi bir ko'zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham.



TILLA BALIQCHA

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.
Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni!

1965



AVLODLARGA MAKTUB

Yo'q, yashay bilmasman asrimdan nari,
Da'vo ham qilmasman mangulik izga.
Balki bir kimsaning unut daftari
Nogahon yetkazar bu she'ni sizga.
U zamon mensiz ham bilursiz ayon
Bizning asrimizning buyuk ofatin'.
Balki tush ko'rganday qolursiz hayron,
Eshitib Toshkentning sabr-u toqatin.
Kitobdan sanani izlab u nafas
Balki yuragingiz entikib urar.
Lekin qarshingizda fojia emas,
Xushnud odamlarning surati turar.
Tagida — sarg'aygan satrlar aro
Kimningdir so'zlari jaranglar mag'rur:
«Bunday jasoratni ko'rmagan dunyo,
Chunki u o'zbekning Toshkenti erur».
Shu zamon ko'zingiz oldida birdan
Pompeya tarixi qolur bir chaqa.
Dersiz, yo Toshkentda hech gap bo'lmagan,
Yo esa bobolar sirli, shunaqa.
Bizning ruhimizni olis yulduzday
Xayol osmonida ilg'arsiz arang.
Zilzila tuyular mavhum bir so'zday,
O'yalarsiz, bobolar qo'rqmapti, qarang.
Do'stlar, buyuk edi chindan fojia,
Asablar tuproqqa cho'kkan edi tiz
Va lekin o'ylamang sirlisiz deya,
Bizlar sirli emas, oddiy edik biz.
Bu cheksiz olamning ich-u toshida
Nima bor? Ilg'armi odamzod ko'zi?
Kim ko'krak kerardi dunyo qoshida,

¹ 1966-yilda Toshkentda sodir bo'lgan zilzila ko'zda tutilgan.

Uni yaratmagan bo'lsa gar o'zi.
 Odamzod xayoli yetmagan falak
 Gar inson boshida aylantirsa tosh,
 Iloj yo'q insonga bardoshdan bo'lak,
 Jasorat atalmas ilojsiz bardosh.
 Do'stlarim, hayratda qolmangiz faqat,
 Sirlilik bizlarning she'rlarga mosdir,
 Dunyo qarshisida ojiz jasorat
 Inson bolasiga hamisha xosdir.
 Botirni tan olmas so'qir fojia,
 Charchash ham mardlikka keltirmagay shak.
 Bobolar mehnatda horgandir deya,
 Aziz nabiralar, o'ylarsiz beshak.
 Serjild kitoblarni varaqlab yana
 Rahmdil qalbingiz entikib urar.
 Lekin qarshingizda tag'in mardona
 Pahlavon kimsaning surati turar.
 Tagida — sarg'aygan satrlar aro
 Bizning uslubimiz jaranglar mag'rur:
 «Bunday mehnatkashni ko'rmagan dunyo,
 Chunki u iroda farzandi erur».
 Shu zamon ko'zingiz oldida birdan
 Kichik chumolicha qolgusi Farhod.
 Oddiy jussangizga ko'z tashlab zimdan,
 Aziz nabiralar, solursiz faryod.
 O'ylarsiz, Alpomish davridan buyon
 Pahlavon o'tmagan bular singari.
 O'ylarsiz, muncha tez qaribdi inson,
 Nahot biz shularning nabiralari?!
 Yo'q, polvon emasdik bizlar ham aslo,
 Jussamiz oddiy deb chekmasdik anduh.
 Bir kun aytibdirki Navoiy bobo:
 «Doim o'zga bo'lur suvrat ila ruh».
 Do'stlarim, hayratda qolmangiz faqat,
 Devqarash bizlarning suratga mosdir.
 Dunyo yaralgandan buyon shu mehnat
 Inson bolasiga hamisha xosdir.
 Sizga falokatdan berganda xabar,
 Do'stlik borasida yozurlar albat.
 Yozurlar: «...biz bo'ldik tengsiz birodar,
 Bu xislat bizlarga xos erur faqat».

Shu zamon ko'zingiz oldida behol
Rum, Romul nomusdan solib qolur dod,
O'ylarsiz, bundayin do'stlikni alhol
Ko'rmagan ekan-da qadim odamzod.
Do'stlik-ku insonning azaliy kasbi,
Dunyoday qadimdir oddiy bir salom.
Agar do'stlikni ham bilmasa asli,
Kimga kerak, axir, inson degan nom!
Do'stlarim, hayratda qolmangiz faqat,
Pahlavon asrga lof urish mosdir.
Inson bolasiga mehr ila shafqat
Hammaga xos edi, bizga ham xosdir.
Do'stlar, buyuk edi chindan fojia,
Chindan og'ir edi mash'um asorat.
Lekin o'ylamangiz badbinsiz deya,
Bizda ham bor edi mehnat, jasorat.
Biz ham izmimizni bergandik butun
Do'stlikning muqaddas qoidasiga.
Chin dildan rahmatlar ayturmiz bugun
Saxovatli ellar oilasiga.
Ammo qolmay deyman she'r gunohiga,
To vijdon qoshida cho'kmagayman tiz.
Do'stlar, jasoratni gohi-gohida
Bir oz ko'pirtirib yozar edik biz.
Ba'zan o'zimizga mehrimiz jo'shib,
Bir chetda qolardi zamin-u zamon.
O'zi ham bilmagan xislatin o'qib,
Uyalib yurardi sho'rlik qahramon.
Yetar, mayda-chuyda gina endi bas,
Ko'kda yuribdi-ku quyosh muzaffar.
Avlodlar, siz meni tinglang bir nafas,
Sizga bir sehrdan berurman xabar.
Yuz yilda qaytibdi bunday falokat,
Yuz yil-ku, tarixda — qoshning orasi.
Aziz nabiralar, unutmang faqat,
Har bir fojia-ning bordir choras.
Tuproq qo'zg'almasdan o'rnidan battar,
Solmasidan avval dahshat, qatag'on, —
Yer osti tinch tursin desangiz agar,
Sizlar yer ustida so'ylamang yoig'on!

1966

BAHOR

Yana bahor keldi. Yana olamda
Ajab bir go'zallik, ajib bir bayot.
Men seni qutlayman shu ulug' damda,
Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!
Tashbih axtarmangiz ushbu g'azaldan,
Naqd joyda nasiya ne kerak asli.
Ayon bir xislatining bordir azaldan,
Seni atamishlar uyg'onish fasli!
Yellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,
Oftob ham yuksaldi — tik kelar quyosh.
Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin,
Bezavol maysa ham silkitadi bosh.
Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkam,
Terak uchlarida izg'ir mavjudot.
Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham
Yashil po'panakdan bog'labdi qanot.
Hovliqma jilg'alar chopar beega,
Qushlar qiy-chuviga to'lmish dala, bog',
Sening visolingdan quvonmay nega,
Bahor, sog'intirding axir ko'p uzoq!
Yaldo kechasiday rutubatli qish
Soldi ruhimizga og'ir bir surur.
Sen kelding, uyg'ondi yana sho'x olqish,
Yig'lagan ko'zlarga tushgan kabi nur.
Ha, mangu zavollik bo'lmas olamda
To suyin socharkan abri naysonlar.
Men sizni eslayman ammo shu damda,
Manguga ko'z yumgan aziz insonlar.
Azaliy hukmini o'qidi hayot,
Necha bor samo ham ko'mdi quyoshin.
Iqbolli sajdagoh bo'lganlar, hayot,
O'zlari tuproqqa qo'ydilar boshin.

O'n oykim, so'nmishdir u tanish na'ra¹,
 Hamon firog'ida fig'on chekar Shosh.
 Bahor kelayotir, bosh ko'tar, qara,
 O, surur kuychisi, dongdor zamondosh.
 Hamsuhbat bo'lmadim (kim edim zotan),
 Tavob ham qilmadim gulshan makoning.
 Lekin she'r bahosi muxlisgadir tan,
 Qanday cheksiz edi ruhiy poyoning!
 Bugun-chi, ne kezar o'tli qoningda?
 Evoh, unda na she'r, na may, na safo.
 Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda
 Joy olmish o'zga bir suyakli daho².
 Beqiyos edi u she'r lochini!
 Xayoli bamisli Ko'ragoniydek.
 Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini
 Unga kiygizardi Sulton Ulug'bek.
 Balxdan horib qaytgan Alisher misol
 Endi to'lg'izgandi cho'kkan dovotin.
 Ketdi bir pok siymo, teran bir xayol,
 Qoldirib dunyoda hech o'chmas otin.
 Baqo-yu bebaqo ayon buyuklik
 O'tdi so'nggi damda bosh egib quyi.
 Faqat bilganidan qolmas tiriklik,
 Mana, gulga cho'mmish Chig'atoy bo'yi.
 Bu sokin elda ham ivirsir bahor
 O'chgan xotiralar chirog'in yoqib.
 Qarayman, qabrlar yastanmish qator,
 Ma'sum binafshadan sirg'alar taqib.
 Kimningdir ko'ksiga engashgancha gul
 Marmar sag'anadan o'qib turar bayt.
 Bahor, qatra yoshim aylagil qabul,
 Onam boshiga ham bordingmikan, ayt?!
 Uning oromgohi bundan olis joy,
 Olisda yotibdi mening panohim.
 Bugun ketganiga to'libdi besh oy,
 Besh oykim, ko'ksimda yonadi ohim.
 Faryod chekkanim yo'q el ichra taqir,

¹ G'. G'ulom ko'zda tutilgan.

² M. Shayxzoda ko'zda tutilgan.

O'ch ham olmadim men o'z qalamimdan.
Onajon, onajon, kechirgil axir,
Shodlanmasin dedim birov g'amimdan.
Dunyodan ketmasin hech kim bemahal,
Hech kimni bosmasin nogahon o'kinch.
Ammo o'z boshiga kelmaguncha gal,
Onajon, tosh qalblar turarmidi tinch.
Kuylarman xotirang balki vaqt yetib,
Bir umr o'rtaur lekin tanda jon.
Suronlar yo'limda turibdi kutib,
O'zing qo'lla endi meni, onajon.
Bugun atrofingda bahordir balki,
Balki shabnam ichra g'arqdir hazin tosh.
Maysalar tengrangda qatordir balki,
Lekin sen yotasan ko'tarolmay bosh...
Bunchalar qattolsan, o sirli olam,
Bunchalar bedilsan, bepoyon xilqat.
Sening hikmatingning so'ngi-ku odam,
Nahotki shunga ham qilmaysan shafqat?
Maysa ham uyg'onar qayta qish o'tib,
Zarracha bo'lsa ham bir himmat unga.
Nahotki eng ulug' farzanding ketib,
Boshin ko'tarolmay yotsa manguga?
Onamni so'rayman sendan erta-kech,
Qaytar deb so'rayman chok etib yaqo
Lekin mening dardli savolimga hech
Javob berolmassan, o, soqov daho!
Javob ololmadi hech kim ham zotan:
Na sulton, na gado, na shoh, na faqir.
Kim qancha quvmasin sening ortingdan,
Bir uyum tuproqni ko'rsatding axir.
Hayot talvasasi tinmagay ammo,
Mangu boqiy qolur Inson va Xayol.
Meros atalmagay barchaga fano,
Qismat atalmagay har kimga zavol.
Faqat o'tmish bilan yashamas inson,
Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod...
Kechagi g'amini o'ylasa obdon,
Bukchayib qolardi bugun odamzod.
Ketgan azizlarni xotirlab goho,

Mayliga, chekaylik bir zungina oh.
 Hayot tantanasi boshlanmish, ammo,
 Do'stlar, nur vasliga tashlaylik nigoh.
 Shu buyuk oftobning mukofotini
 E'zozlab qo'yaylik aytib shukrona.
 Dildan o'chiraylik g'amning otini,
 Bahor ham baxt kabi axir yagona.
 Bu kun she'ri chiqqan shoirday dunyo
 Jilmayib qo'yadi barchaga masrur.
 Temurbek gumbazin qo'ynini go'yo
 Yoritgani kabi bir lahzalik nur.
 Dilbar kelinchakning ko'ksida g'ulu,
 Zardolu shoxiga tashlar ko'z qirin.
 Barg aro shu'lalar kaftlarmikan u...
 Bahor tetapoya go'dakday shirin.
 Yuksak arg'uvonning uchida hilol
 Paxmoq bulutlarni etadi nimta.
 Qaydadir shoir kuylaydi behol:
 – Ko'nglim ham bu kecha oyday yarimta...
 Uvada kamzulda billur tugmaday
 Bulutlar ortidan boqadi yulduz.
 Qaydadir yurtini eslab ingrar nay,
 Qaydadir qo'zigul yoradi ildiz.
 Qaydadir gulshandan axtarib visol
 El kezar — tog'larning go'zal arvohi.
 Shoirning dilrabo baytlari misol
 Oh tortib tizilar turnalar gohi.
 Qizg'aldoq bargidek uchar dildan g'am,
 Toshqinlar kiradi qalbingga manim.
 Bahoring muborak bo'lsin ushbu dam,
 Mening O'zbekiston — dilbar Vatanim.
 Faqat sen qalbingga cho'ktirmay malol,
 Charchagan ruhimga ilhom solursan.
 Bahor ham, umr ham o'tar ehtimol,
 Faqat sen dunyoda mangu qolursan.

1967



SOZIM

Men shoirman,
Istasangiz shu,
O'zinniki erur shu sozim,
Birovlardan olmadim tuyg'u,
O'zgaga ham bermam ovozim.
Men kuyladim — goh dilda kadar,
Goh sevinib she'r to'qiyman men.
Tinglamasa o'zgalar agar,
O'z-o'zimga she'r o'qiyman men.
Men kuyladim ushbu olamda
Inson bo'lib tug'ilganimni.
Men kuyladim ba'zan alamda
Yig'lab-yig'lab bo'g'ilganimni.
Men kuyladim bu olam aro
Sobit turgan xalqimni faqat,
Men kuyladim o'tmishning qaro
Zulmatida yo'qligin shafqat.
Kerak bo'lsa, amr etsa yurak,
Keltirurman umrimga imon.
Mening uchun na ta'zim kerak,
Na holvaytar kabi shuhrat-shon.
Shaydo bo'lib yurganda birdan
Xayolimga tashlamang kamand.
Mijg'ov va past, g'iybat gaplardan
Jajji she'rim qo'yurman baland.
Xayol kabi keng erur olam,
Mayda gapni ko'tarmagay she'r.
Kerak bo'lsa mening uchun ham
Javob berar bobom Alisher.

1967

GO'ZALLIK

Kuzning rutubatli oqshomi edi,
Bog'lar sokingina chekar edi oh.
Ruhimda bir xazon ayyomi edi,
Ajib go'zallikka duch keldim nogoh.
Misli xayol edi u malak siymo,
Chiroy olamining tengsiz sayqali.
Ko'zlarim oldida turardi go'yo
Navoiy g'azalin tirik haykali.
Bir zum ko'zlarimdan yo'qoldi uyqu,
Bir zum bahor kabi yorishdi olam.
Bir zum xayolimdan chekindi qayg'u,
Bir zum yuragimdan ketdi g'am-alam.
Bir zum go'zallikning huzurida jim
Samoviy hislarga bo'lib qoldim band.
O, dono tabiat, o buyuk hakim,
Hikmat ko'rmadim hech men senga monand.
O'zing yuraklarga cho'ktirib kadar,
Xalos ham qilursan rahm etgan damda.
Shunday go'zallarni yaratmasang gar,
Qolib ketarmidik bir umr g'amda.

1967



OHU

Makoning bo'libdi tog'lar orasi,
Sensan go'zallikning asli, sarasi.
Ma'yus yuragingda ishqning yarasi,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

Daralar qo'ynida neni istarsan,
Nechun doim g'amgin, doim mustarsan.
Latif shijoating qayga qistarsan,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

Yo'q, sen extarmassan tog'lardan makon,
Va na go'zalliging uchun shuhrat-shon.
Sayyod jabri senga bermaydi imkon,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

Qo'y, jonim, ko'zlaring to'lmasin yoshga,
Tongda oyog'ing qo'y baland bir toshga.
Seni quyosh o'zi ko'targay boshga,
Sen ham oshiqmisan yoki, ohujon.

1967



SHOIR

Parvo qilma, do'stim, ezilma sira,
G'amgin qo'shiqlarni kuylasa shoir.
Misralari garchand ma'yus va xira,
Lekin barchasi ham qalbiga doir.
Buyuk zamonaning otashin zarbi
Uning qalamiga yot emas aslo.
Agar kerak bo'lsa Sharqni va G'arbni
Yolg'iz bir she'riga eta olar jo.
Lekin u yuragin qasddan yoqmagay,
Qalbiga olamdan oqar ohanglar.
Ayting, hilol buncha ma'yus boqmagay,
Ayting, muncha suluv bo'lmagay tonglar.
Ayting. Bobotog'ning silsilasida
Sakrab kezmasinlar munis ohular.
Ular aks etadi she'r misrasida,
Ajib o'ychan qilib qo'yadi ular.
Parvo qilma, do'stim, ezilma sira,
G'amgin qo'shiqlarni kuylasa shoir.
Misralari garchand ma'yus va xira,
Barchasi ham shaydo qalbiga doir.



MINORAI KALON TEPASIDAGI LAYLAK

Tashlab ketdi bu shaharni beklar, amirlar,
Tashlab ketdi bu shaharni islom shavkati.
Tashlab ketdi bu shaharni shayxlar, kabirlar,
Tashlab ketdi mahmadona Mang'it davlati.

Bulbullar ham ketdi bundan ko'zini yoshlab,
Tovuslar ham qaylarga'dir asta yo'qoldi.
Faqat bir qush bu shaharni ketmadi tashlab,
Faqat laylak Buxoroda manguga qoldi.

Men bu holga hayron bo'lib boqdim har safar,
Bir she'r izlab Buxoroni kezarkan uzoq.
Ajab, qushning oyoqlari g'o'zaga o'xshar,
Qanotlari esa uning paxtadek oppoq.

1968



HAQIQAT YO'LLARI

Poyoni yo'q tarixning kechmishini o'ylayman,
Yosh idrokim zamonlar qarshisida qolur lol.
Va shu ulkan dunyoning kemtigidan bo'ylayman,
Unda birov quradi, birov buzar bemalol.
Ba'zan yomon ot qolur yaxshi odamdanda hatto,
Qay bir yovuz kimsani yaxshi derlar erta kun.
Nahot, deyman, dunyoda sobit narsa yo'q aslo,
Nahotki yetuklikning timsoli yo'q bus-butun?
Deydilar, har zamonning bordir o'z tarozusi,
Oh, naqadar rost erur ushbu buyuk haqiqat.
Mangulik saltanatning qancha-qancha ko'zgusi
Oftob oldida shamday miltirab qoldi faqat.
Sulton esa ham garchand o'z davrida Ulug'bek,
Oddiy bir qulboboday qilichga egdi bo'yin.
U-ku qayta tirildi hech nima ko'rmagandek,
Lekin dunyoning ishi bamisoli ot o'yin.
Manguga qolay deya shuhrat quli Iskandar
Yuksak toqqa o'zining suratini solibdi,
Xo'jasida bo'lsa ham qancha-qancha shaym-u zar,
Qarangki, juldur kiygan Ezop mangu qolibdi.
Ha, sadaqa kam erur mangulik xaltasida,
Payhon bo'lar saroylar, qancha yuksak qabrlar.
Goh oddiy tasodifning oddiy bir hamlasida
Kapalak qanotiday uchib ketar qasrlar.
Balki zamonlar o'tib, davrlar shamolida
Sovurilar qancha zot, yana qancha buyuklik.
O'ylayman, mangulikning oynai jamolida
Kim qolarkan sevgiday abadiy va suyuqlik...
Kim muqim turar ekan sonsiz avlodlar osha,
Kimning ishi doimo atalar ekan savob?
Kim falakni quyoshday mangu qilgay tomosha,
Qay bir xilqatni inson beminnat aylar tavob?

Haqsizlikdan mazlumning ichga sig'masa dardi,
Agar zulmat ichida ko'rinmay qolsa hayot.
Qayga u sajda qilib, qayga dilin yorardi,
Qay suyanchiq qoshida aylar edi dod-faryod.
Shu mo'jaz hayotimda ko'rdim qancha sevinch, g'am,
Goho tik boqolmadim razolatning ko'ziga.
Ushbu yorug' dunyoda topsam ham, topmasam ham,
Bari bir talpinardim haqiqatning o'ziga.

* 1969–2000



XOTIROT

Uydan ketganimga o'n yil bo'libdi,
O'n yil qishlog'imdanda yuribman uzoq.
Men yurgan yo'llarda o'tlar unibdi,
Ko'milib bo'libdi men kezgan so'qmoq.

Yoshlik chog'im edi, sho'xligim tutib
Ismim o'ygan edim bitta terakka.
U ham jarohatday ketibdi bitib,
U ham yuksalibdi mensiz yuksakka.

Buzilib bo'libdi allaqaysi dam
Hovli ortidagi omonat ko'prik.
Bu yerda men bilgan odamlarning ham
Ba'zisi endi yo'q, ba'zisi tirik.

Hayratga tushmasman bu holdan sira,
Dunyo bu — quvg'indi ohuday yelar.
Dunyo bu — eng oddiy hukmiga ko'ra
Kimdir tug'iladi va kimdir o'lar.

Lekin qalbni bosdi nogoh bir sukut
Nogoh bir hayajon ezdi dilimni.
Umrini yo'llarini bosmaganmi o't?
Xazon ko'rmaganmi hayot yo'limni?

Ko'ksidan nomimni beshafqat, battar
O'chirgani kabi oqbadan terak —
Bag'riga ismimni yozgan bo'lsa gar,
O'chirmadimikan birorta yurak?

Yoshligim behuda o'tmadimikin?
Go'zal tuyg'ularim bormikin tirik?
Nogahon buzilib ketmadimikin
Birorta yurakka men solgan ko'prik?

Yillar umrimizga qilarmi shafqat?
Biror ish bormikan aylagali yod?
Qayta tiklash mumkin barchasin, faqat
Qayta tiklanmagay o'chsa xotiro!..

1969



NOMA'LUM ODAM

U na shoir edi va na mashhur zot,
Lekin dunyo bilan bir edi dardi.
U ham boshqalarday kechirib hayot,
Shoshib ishga borib sekin qaytardi.
Anglardi dunyoni u ham xo'p teran,
Ma'yus boqar edi botguvchi kunga.
Ba'zida yuragi yongani bilan,
Parvo qilmas edi hech qachon bunga.
U qabr ustida so'zlamadi nutq,
Tabrik ham aytmadi to'ylarda xandon.
O'lim bu — nishonga borib tekkan o'q,
Tug'ilish — shiddat-la tortilgan kamon.
Shon-shuhrat talashgan turfa xil g'arib,
Sho'rlik kimsalarga kulib boqardi.
Yurmasdi har qayda ilinj axtarib,
Qalbida bir dunyo guvlab oqardi.
Birovning u bilan bo'lmadi ishi,
U ham duch kelganga ochmadi yurak.
Nasab, ikir-chikir, mol-mulk tashvishi
Uni etolmadi zarra jonsarak.
Loqaydni do'pposla, desa ehtimol —
Unga yopishardi nokasning bari.
Uning ko'zlarida yonardi behol
Yiroq yulduzlarning sirli nurlari.
Olamning bu mayda g'alvasi nechun?
Bari o'tadigan, bari nokerak.
Tariqday zaminning ustida beun
Yashab o'tdi shundoq buyuk bir yurak.
Qaydan kelgandi u? Bilmadi kimsa,
Qabrga ham jimjit kirib ketdi u.
Menimcha, dunyoning ustidan rosa
Miriqib qahqaha urib ketdi u.

YAXMALAK

(Qizim Shoiraga)

Yaxmalak otasan shodon qiyqirib,
Ovozing jaranglar billuriy bog'da.
Qizim, bolalikning fasliga kirib,
Ilk bora yaxmalak otding shu chog'da.
Ilk bor hayotingda qor saylidir bu,
Izingdan shu'ladek yugurar ko'zim.
Qo'rqma, polaponim, chekmagil qayg'u,
Yiqilsang turg'izib qo'yaman o'zim.
Oppoq qor qo'ynida nuroniy olam,
Quchog'i buvingning bag'ridek yumshoq.
Yayrab qol, shu munis og'ushda, erkam,
Yorug' dunyo senga quchoq ochgan choq.
Yayrab qol mayli, shu kumush maydonda,
Yayrab qol choyshabin yiqquncha falak.
Chunki ona qizim, yorug' jahonda
Ravon yo'l bitta shu: bu ham yaxmalak.
Hali ulg'ayarsan, unib-o'sarsan,
Gaplarim ma'nosin anglarsan hali.
Olis yaxmalakni eslab qo'yarsan
Yo'llar mashaqqatin tortgan mahali.
Hozir-chi, kezaver, mayli, beparvo,
Murg'ak yuragingda g'ussa tutmagin.
Baxting butun bo'lsin, qizginam, ammo,
Dunyodan yaxmalak otib o'tmagin.

1972



ALLOMA

Biror joyda topilsa nogoh gavhar donasi,
Cho'ntagi teshik har kim da'vo qilgan hamisha.
Men ham orzu etardim, yaxshi nom bahonasi —
Meni ham yodga olsa g'ayri el, shuhratpesha.

Qancha buyuk zotlarga makon bo'lgan Xorazm,
O'tgan, ketgan tarixing barchaga kunday ayon.
Sira ajab emasdir Mashhad ham aylab bazm,
Bir Qiyot farzandiga ta'zimda bo'lsa jahon.

Gaytdi buyuk alloma o'z yurtin quchog'iga,
U bois qalbim yana g'urur bilan to'libdi.
Vo ajab, shunday bir zot o'z qadrin topmog'iga
Uncha-munchamas, rosa ming yil kerak bo'libdi.

Holini bilmaganga ro'baro' kelsang agar,
Qalbingdagi arslonning mo'yloviga cho'zgay qo'l.
Men-ku oddiy insonman, lekin shunday dam battar
O'n ming yillik g'ururim qo'zg'alib ketgay butkul.

Xalqim, tengsiz farzandlar bergansan-u dunyoga,
Zar qog'ozga ishqiboz murg'day ustin yopgansan.
So'ng yuz yillab faromush ko'zing tikib samoga,
Dafinai ganjingni eslatishsa topgansan.

Beruniy bobomiz shu, ismi ham Abu Rayhon,
Ba forsi guftaam gar az zamoni pur Sino.
Bu zotni yetishtirgan qadim Sharq, ko'hna jahon,
Kumush soqol, tilla bosh, asl qomusiy daho.

Sharafai zamondan boqadi u bepisand,
Buyuk Sharq tafakkurin benazir xazinasi.
Mustabid Mahmud emas xayolini etgan band,
Bilgisiz ellar shavqi, yulduzlar nashidasi.

Shunchalik bo'lar axir alloma deganlari,
Agar-chi, qismat chigal, noshukur ul zamona.
Javohir iste'dodning mevasi buning bari:
«Osor ul-boqiya»-yu «Hindiston»-u «Saydona».

Ushoqqina odamman, jussam otamdan hadya,
Lekin mayda hislarni yoqtirmas aslo jinim.
O, buyuk Sharq, buyuk Sharq, sening shavkating deya
Ne buyuk farzandlaring zahmat chekkan betinim.

Qayda ular? Qaysi bir puchmoqlarda benishon...
Afsuski, o'z qadrini bilmas doim odamzod.
Bu kun Abu Rayhonga ta'zimda ekan jahon,
Bu — buyuk bobomizga zamonadan bir imdod.

Dovotim qurimadi, mudom faxriya bitay,
Eng ulug' ajdodlardan xayolimga yog'sin nur.
Shunday zotlarni bergan xalqimga ta'zim etay,
G'ururimga g'ururdosh kim bo'lsa — ming tashakkur.

1973



O'ZBEKISTON BAYROG'I

Har qanday lashkarning ham
O'z tug'i, yalovi bor,
Sen qaysi saltanatdan,
Sen qaysi davlatdan kam.
Qo'rg'onlar qatorida
Bir qo'rg'onsan ustuvor,
Vallomat, tug'dor yurtim,
Muhtasham Respublikam.

O'ylayman, ha, olamda
Nisbiy erur ko'p holat,
Zamona g'alviridan
Har narsa o'taverar.
Tarix uchun va lekin
Kim ham bergay kafolat,
Yakka inson bir yo'lchi:
Kelar-u ketaberar.

Qadim-qadim zamonda
Yunonlik haykaltarosh
Bir san'at yaratibdi,
Maqsadi — bir burda non.
Haykal esa asrlar
Sinoviga bermish dosh,
Bugun uni ko'klarga
Ko'tarar butkui jahon.

Ko'zni kattaroq ochib
Boqsang bu muammoga,
Alam qilgulik qadar
Kam yashar inson zoti,
Faqatgina xalq sohib
Bardavom bu dunyoga,

Asragay har kas nomini
Faqat xalqning hayoti.

Sanasang hodisot mo'l
O'zbekning tarixida,
Har biriga bir noma
Yoki doston bitgulik.
Ne zotlar oqmagan bu
Asrlar arig'ida,
Har biri bitta xalqning
G'ururiga yetgulik.

Barchaga ayon erur
Men aytgan ushbu gaplar,
To hanuz asablarni
Ezg'ilar bu shum o'tmish.
Moziyga o'qtin-o'qtin
Sochsak hamki g'azablar,
Lekin ayting, o'zbekning
Qo'lidan kim ham tutmish?

Bir kuni yovqur shoir,
Ya'ni Turdi Farog'iy,
Bo'ltak bo'lgan bu xalqqa
Birlash deb qildi xitob.
Bejavob qolabardi
Uning dardli so'rog'i,
O'sha-o'sha zamin kar,
O'sha-o'sha gung oftob.

Bugun zimdan nazar sol
Sen mana bu bayroqqa,
Mayliga bir daqiqa
Unutgin turfa kekni.
Shu bayroq nomimizni
Elti yiroq-yiroqqa,
Shu bayroq birlashtirdi
Parokanda o'zbekni.



ISHONCH KO'PRIKLARI

Yuzdan parda ketsa,
Dildan diyonat,
Mehr rishtalari zimdan uzilsa;
Yuraklarni bossa shubha, xiyonat,
Ishonch ko'priklari buzilsa;

Yetimlar haqidan qo'rqmasa birov,
So'qmoqqa aylanib ketsalar yo'llar;
Qiblagohlar osiy, turishganlar yov,
G'aznalarga cho'zilsa qo'llar;

Bolalar ruhiga hayot degan dars
Manmanlik urug'in joylasa;
Oshiqlar ko'chada ma'shuqasin emas,
Kimningdir qadamin poylasa;

Ening shoirlari g'anim zotlar kabi
Bir-birlarin g'ajib-yesalar;
Minbarlarga chiqsa ko'cha-ko'yniing gapi,
Andishani qo'rqoq desalar...

Bunday yurtda endi qirg'in shart emas,
Vabo ham qochadi undan yiroqqa;
Hatto daryolari qurir basma-bas,
Hatto tuproqlari tushar titroqqa.

Xalqim, bundaylarni ko'rgansan azal,
Ko'p chekkansan ular ozorin, dog'in,
Sen yengib o'tgansan lekin har mahal,
Xalqim, topinaman o'zingga tag'in.



ISMALOQ

Sen — bahor ne'mati, oddiy bir ko'kat,
Poyang arg'uvoniy, barging yapaloq.
Quvondim, men seni ko'rsam har fursat,
Har ko'klam men seni kutdim, ismaloq.

Sen bir gul emassan, nozlarga to'lib,
Ilhom bera olsang injiq ijodga.
Men uchun sen najot elchisi bo'lib,
U og'ir kunlarni tushirding yodga.

Esimda, oyog'i pilikday go'dak,
Ochlikdan qoq qurib, bergan edi jon.
Bir taqa arpa ham ko'zga surtgudak,
Janglar jarohati bitmagan hamon.

Onalar chorasiz, bobolar miskin,
Diydaga yopishgan yenglar, etaklar.
O'shanda el-yurtga darmon-u taskin,
Nasiba bo'ldingiz, aziz chechaklar.

Ko'rganman, qishlog'im ko'chalarida
Ochlikdan gezarib ketganlarni men.
Ko'rganman, uzun qish kechalarida
Sizni armon bilan kutganlarni men.

Bugun dasturxonda bezaksiz faqat,
Kimdir e'zoz etar, bepisand kimdir.
Sizning qadringizni bilguvchi har vaqt
O'sha yo'qchilikni ko'rgan xalqimdir.

Siz — ravoch, chuchmoma, Siz — quyon to'piq,
Yaltirbosh, ko'k beda, Siz — tuya tovon.
Sho'ra o't, yer yong'oq, qoqi, zamburug',
Sharbat bera olgan sahroyi tikon.

Aziz ne'matlarim, Sizga tashakkur,
Doimo bo'y cho'zing zamin komidan.
Men sizni ko'zimga surtayin har qur,
Shukrona aytayin hayot nomidan.

1987



ALISHER VA TALABA

Sarōy-yo'lga chiqdi savlati bilan,
Alisher arkoni davlati bilan.

Hirof fazosida yangradi takbir,
Shahar aylanmoqda vaziri kabir.

Ulusning dardi ne? A'moli nechuk?
Beva-bechoraning ahvoli nechuk?

Nechukdir boshlangan inshootlari?—
Mirni qiziqtirar ularning bari.

Garchi shoirdir u benazir, tanho,
Lekin saltanat ham dastidadir jo.

Daryolarni burar imo aylasa,
Mag'lub muzaffardir himo aylasa.

Tegrasida bukun shohona jonlar,
Sergak sarbozlar-u sodiq a'yonlar.

Vazir o'tib borar guzarlar aro,
Ta'zimga chiqmishdir jami fuqaro.

Dastori haybatli shayxlar egar bosh,
Bosh egar kosib-u shoir-u naqqosh.

Alisher barchaga tarahhum bilan,
Hurmat ko'rgazardi tabassum bilan.

Yuzlab talabalar mamnun, sarafroz,
Ulug' Navoiyga chiqdilar peshvoz.

Hali lablaridan uchmay biror so'z,
Hazrat atrofiga tashladilar ko'z.

Nigoh yuritdilar saflarga tomon
Va bir talabaga boqdi nogahon.

Mehr ila tikilgach, tushdilar otdan,
Kim ul aziz kimsa aziz bul zotdan?

Borib talabani quchdilar hazrat,
Olomon ruhida yangradi hayrat.

Sarbozlar, a'yonlar hayratda edi,
Takabbur boyonlar hayratda edi.

Tag'in otga mindi Vazir bekalom,
Karvon o'z safarin etkazdi davom.

... Oxir bir mulozim sabri tugab, lol,
Alisherga shundoq tashladi savol.

— Kimga shu asnoda baxt kuldi ekan,
Ayting, ul talaba kim bo'ldi ekan?

O'ychan bir tabassum qildi-yu janob,
Mulozimga sekin ayiladi javob:

— Esimda, yosh chog'im, ko'p yillar nari,
Menga saboq bergan uning padari...

195



UYG'ONISH ZAMONING

O'kinma, ona yurt, o'kinma, xalqim,
Desalar, dilingda zorlaring bordir.

Aslida, qo'yningga sirg'alib kirib,
Zaharlar sochguvchi morlaring bordir.

O'tgan yo'llaringga tashlasam nazar,
Qayrilmas qanotli sorlaring bordir.

Senga shum g'animlar qazmasinlar choh,
Yov kelsa atagan dorlaring bordir.

Bugun yolg'izman deb boshingni egma,
Tegrangda do'st ila yorlaring bordir.

Balli, istiqbolga ko'zni tikibsan,
Axir haqqa muhtoj xorlaring bordir.

Oqqan daryolaring qaytadan oqsin,
Hali erimagan qorlaring bordir.

Sen san'at o'lkasi, she'r diyorisan,
Qancha chertilmagan torlaring bordir.

Uyg'onish zamoning muborak bo'lsin,
Azaliy shiddating, orlaring bordir.

Men mitti o'g'lingman, lekin yukingni
Ko'tarib o'tguvchi norlaring bordir.

1991



IBODAT

Dunyodan roziman dema hech qachon,
Desang ham, so'ylagil sahroga, toqqa.
Chunki seni tinglab, kimdir o'sha on,
Nega rozisan, deb tutgay so'roqqa.

Dunyodan norizo bo'lsang ham agar,
So'z dema, bardosh qil azob, firoqqa.
Chunki seni tinglab, kimlardir battar,
Nega, deb albatta, tutgay so'roqqa.

Dunyo ishlariga boqma hech hayron,
Jimgina nazar sol ko'hna bu korga.
Olis kechalari yolg'iz qolgan on,
Dilingni och faqat Parvardigorga.



JABROIL

Ul kuni Muhammad – xokisor banda –
Alloh nazariga bo'lgandi noil.
Sokin hujrasida o'ychan turganda,
Tushdi huzuriga Hazrat Jabroil.

Avval Muhammadning ko'ksini yorib,
Shaytoniy hislarni yulib tashladi.
So'ng iymon nuriga hikmatni qorib,
Muhammad ko'ksiga joylay boshladi.

Dedi: – Qalq o'rningdan endi, Muhammad,
Rasulсан, yo'l ko'rsat jami insonga.
Noqis aqllarni hikmatga qarat,
Boshla osiylarni dinga, iymonga.



ME'ROJ

Arshning suluv oti – nurqanot Buroq
Elti Muhammadni oliy dargohga.
Tasviri joizmas bu holni, biroq
Visol nasib etdi Rasulullohga.

Ne-ne payg'ambarlar jam bo'lib bir yon,
Rasulni o'zlarin qavmi deb bildi.
Minnatdor Muhammad shod bo'lib chunon,
Allohdan shafqatni iltimos qildi.

Arshdan javob keldi: – Ayo, Muhammad,
Avval bir gapimni fahm etib ko'rgil.
Do'stlikda iltimos bo'lmagay minba'd,
Men ham buyurgayman, sen ham buyurgil.



«QUM FA ANZIR!»

Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Yota berma misoli tanbal.

Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Zimmangga ol kurashni dangal.

Qum fa anzir! — Tur va ogoh et,
Oldindadir hali mashaqqat.

Qum fa anzir! — Tur va ogoh et,
O'tda yongay mushriklar albat.

Qum fa anzir? – Tur va ogoh et,
Ayt, mo'minlar bo'lsinlar qoim.

Qum fa anzir! – Tur va ogoh et,
Ulug'lagin Rabbingni doim.



VAHIY

Manman kimsalardan ranjidi Rasul,
Ko'ngli qolgandayin hatto do'st-yordan.
G'orlarga bekinay deganda butkul,
Vahiy tusha keldi Parvardigordan:

- Aytgil, ey Muhammad, manman kimsalar,
Vahmkor bo'lsa ham nechog' siyog'i,
Qancha depsinmasin chiranib magar,
Teshib o'tdimikan yerni oyog'i?

- Aytgil, ey Muhammad, manman kimsalar,
Vahmkor bo'lsa ham nechog' siyog'i,
Qancha kerilmasin chiranib magar,
Tog'larga yetdimi ekan dimog'i?



HORDIQ

Arab sahrosida yo'l yurib karvon,
Topdi bir manzilda qo'nim va qaror.
Horg'in Rasululloh – ozurda ul jon,
Hordiq chiqarmoqni qildi ixtiyor.

To'shaksiz, taqirda yotdi yonboshlab,
Bamisli ochundan ko'ngli qolgan qul.
Keldi sahobalar ko'zlarin yoshlab:
– Hech qursa bo'yrada yotingiz, Rasul.

Rasululloh dedi: – O'ylamang aslo,
Fanodan men rohat kutayotirman.
Bu dunyo daraxtning soyasi go'yo,
Men undan ot minib o'tayotirman.



IBRAT

Ruju qilmadilar Hazrat Payg'ambar
Yuksak saroyga-yu oltindan taxtga.
Qaygadir toliqib etganda safar,
Suyanib dam oldi bir tup daraxtga.

Kim aytar, dunyoda kibr ustuvor,
Kim aytar, umrning ma'nosi shuhrat.
Rasul kamtarlikni qilib ixtiyor,
To Mahshar bizlarga qoldirdi ibrat.

Rasul amr qildi:– Kesing daraxtni,
O'ylamang, borliqqa yo'qdir himmatim,
Payg'ambar daraxti bergay deb baxtni,
Sig'inib yurmasin unga ummatim.



RO'ZA

Ramazon oyida, hayit chog'ida
Sumalak pishirdi ahli musulmon.
Unni qovurdilar zaytun yog'ida,
Halim tayyorladi – kimda bor imkon.

Bahor keldi mana, qishdan chiqoldik,
Bergan rizq-ro'ziga, ne'matga sharaf.
Tog'dayin zahmatni axir yiqoldik,
Tabiatga sharaf, himmatga sharaf.

Ro'zadan chiqqanlar, sizga ham rahmat,
Farzingiz sinovli saodat erur.
Rasululloh demish: – Sabr qil, ummat,
Mo'minlik belgisi qanoat erur.



HAYIT

Hayit kunlarida janglar ham to'xtab,
Qilichlar qiniga qaytib kirguvsi.
Mo'minlar egizak jonlarga o'xshab,
O'zgaga boqqan choq o'zni ko'rguvsi.

Umidvor har kimsa topib kushoyish,
Qorong'i dillarga yog'ib turgay nur.
Uyquda farog'at, yurtda osoyish,
Duolar ijobat, niyatlar manzur.

Adovat, hasadni kasb etgan inson,
Mayli, shoh yo gado, yo sayid bo'lsin.
Iloyo bariga baxsh etsin iymon,
O'tar har lahzasi bir hayit bo'lsin.



HAJ

Necha cho'llar oshib, daryolar oshib,
Bir kun kirib keldi Makkaga karvon.
Dengizga yetishgan jilg'adek shoshib,
Ummatlar yo'l oldi Ka'baga tomon.

Ularning barchasi mo'ysafid edi,
Asoga tayangan nuroniy boshlar.
Kimdir hayrat bilan ularga dedi:
– Hajga kelmaydimi sizlarning yoshlar?

Ummatlar deyishdi: – Haq yo'li mushkul,
Aziyat chekkan-ku Payg'ambarimiz.
Qutlug' bu safarga olgan chog'i yo'l,
Yosh-yosh yigit edik bizning barimiz.



QYISHA

Oyisha, Oyisha, Oyisha ona,
Nechun ko'zlaringdan oqar marjon yosh.
Senga Rasululloh o'zi parvona,
Bir muhring Oy bo'lsa, birisi Quyosh.

Tonglarni ottirding juftingga qarab,
Shoni shon keltirdi, hasrati – ado...
Payg'ambar zavjasi bo'lmoq-ku sharaf,
Insonga yo'ldoshlik og'irdir ammo.

Oyisha, Oyisha, mangu sabot top,
Senga termularmiz bizning barimiz.
Shamollab qolmasin, ustlarini yop,
Orom olayotir Payg'ambarimiz.



HAZRATI ODAM

Joylari osmonda bo'lsa ham magar,
Hazrati Odamga qiyindir g'oyat.
O'ng yonga boqqanda ruhlari yayrar,
Chap yonga boqqanda o'rtanar faqat.

Bir tomon jannatning fusunkor bog'i,
U – rohat go'shasi, yam-yashil makon.
Bir tomon do'zaxdir, yo'qdir adog'i,
U yerda abadiy azob va fig'on.

Quvnar, o'ngga boqib Hazrati Odam,
Chap yonga boqqanda oshar nolasi.
Bir nasli jannatga noil bo'lsa ham,
Do'zaxda yonmoqda bitta bolasi.



BILOL HABASH

Payg'ambar ummati – qora tan Bilol
Rasulga hamisha kamarbastadir.
Sidoq ila vafoga bo'ldi u timsol,
Qaytmadi rost yo'ldan, sog' yo xastadir.

Bilol aytar edi azonni yakkash,
Sazovor bo'lmishdi ishonchga andoq.
Rasuldan so'rashdi: Bu qora habash
Jannat chehrasiga yarashgay qandoq?

Javob shunday bo'ldi: – So'ylangiz bilib,
Uning oq dilida iymon ohangi.
Jannat hurlariga qora xol qilib,
Bo'lib berilgaydir Bilolning rangi.



INSON

Oldiga kelganni qaytarmay yemoq,
Aslida, aqli yo'q hayvonning ishi.
Og'izga kelganni qaytarmay demoq
Noqis-u befahm, nodonning ishi.

Tavajjuh ayladi Tangri taolo,
Muqaddas sanaldi Inson degan nom.
Insonni e'tirof etmagan asno
Iblis ham quvildi Arshdan batamom.

Ko'zingning o'ngida o'sgandek ekin,
Rabbim ham ogohdir har zum, har ishdan.
Ro'za-yu parhezda muddat bor, lekin
Hamisha hazar qil harom-harishdan.



OTA

Ota-yu onaning qazosi meros,
Oldin kelgan odam oldinroq ketsin.
Farzand farzand bo'lsin farzandlarga xos,
Awwali tiriklar qadriga yetsin.

Bir kun so'radilar Rasulullohdan:
– Taqdir hukmi ekan, bo'lgani bo'ldi.
Zarra foyda yo'qdir garchi oh-vohdan,
Ayting, men netayin, padarim o'ldi.

Rasululloh dedi: – O'lim muqarrar,
Endi irodangni bardosh tomon bur.
Otangning tinchini o'ylasang agar,
Uning do'stlaridan xabar olib tur.



ONA

Kimdir savol berdi: – Aytgil, Muhammad,
Yolg'iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko'p yaxshilik aytay, o'zing ayt,
Ota-onamgami yoxud bolamga?

Rasul javob qildi: – Tingla, birodar,
Gapimni bir bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar,
Eng awal onangga yaxshilik qilgil.

Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq –
Rostdan ona erur qiblai olam.
Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq
Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham.



FARZAND

Bir kuni ranjitdi otani farzand,
Ota o'z uyidan bosh olib ketdi.
Lekin Alloh mehri bo'lib sarbaland,
Ota Makkatulloh vasliga yetdi.

Ota fig'on chekdi Ka'ba qoshida,
Go'yo unut bo'lgay alamlar bari.
Najot charx ursa ham garchand boshida,
Sira ketolmadi bir gapdan nari.

Ka'bani sig'inar ekan kekxa chol,
Armonin oshkora aytdi olamga.
Dedi: – Ibodatim bo'lsa ham uvol,
Faqat saodat ber o'sha bolamga.



DO ZAXIYLAR

Yovlashdi bir kuni ikki musulmon,
Oradan adolat tamoman ko'chdi,
Ular olishdilar uzoq, beomon,
Oqibat birining kallasi uchdi.

Kimdir payg'ambardan so'radi kelib:
– Ayo, Rasululloh, aylagil javob.
Hoynahoy, raqibin qonga g'arq qilib,
Ul kas jahannamda tortgaydir azob?

Rasululloh dedi: – U ham va bu ham
Mahkum bo'lg'uvsidir do'zax to'riga.
Ikkov ham maydonga tushganlari dam
O'lim tilaganlar biri biriga.



BAHS

Bir kun bahsga tushdi Do'zax va Jannat,
Tortisha boshladi har ikki tomon.
Biri azobini uqtirsa faqat,
Biri rohatini maqtardi chunon.

Do'zax gerdayardi: – Jamiki yuzsiz,
Fosiq bandalarni yig'ib olgayman.
Jannat kerilardi: – Men esa, so'zsiz,
Yaxshilarni to'plab, dovrug' solgayman.

Arshdan nido keldi lekin o'shal dam:
– Bahsni to'xtatingiz, tinglangiz so'zim.
Shuni unutmangki, ikkingizga ham
Loyiq bandalarni jo'natgum o'zim.




SAVOB

Dasti qisqalarni kamsitma zinhor,
Savobning katta-yu kichigi bo'lmas.
Kimningdir davlati behad-u bisyor,
Va lekin baxildir, tolei kulmas.

Och qolgan go'dakka saxovatli zot
Yarimta xurmoni dildan ilindi.
Bilgilki, bu himmat shu zum, shu zahot
Bus-butun savob deb qabul qilindi.

Demishlar, savob ish ofatni to'sib,
Ezgulik yo'liga shaylangusidir.
Eng kichik himmat ham toychoqdek o'sib,
Tulpordek savobga aylangusidir.



DUO

Rasul bir ummatni alqab doimo,
Sha'niga duolar aytguvchi erdi.
Qo'ling baland bo'lsin desalar, illo,
Qo'ling past tushmasin sira ham, derdi.

Rasulga u xitob qildi bir safar:
– Garchi men Tangrining otgan toshiman,
Siz menga doimo tilaysiz zafar,
Go'yo men qandaydir lashkarboshiman.

Rasululloh dedi: – Tingla, ey ummat,
Yong'an chirog'ingga duo pilikdir.
Qo'ling baland bo'lsa, bilki, bu – ne'mat,
Qo'ling past tushmog'i tilanchilikdir.




BANDAGA SIG'INMA

Hech qachon bandaga sig'inma, banda,
Zulm qilsa agar, zolimga la'nat.
Bitta ruh yashaydi har bitta tanda,
Insonning avliyo bo'lmog'i g'alat.

Garchi bu dunyoda bordir nodonlik,
Tafakkur, Aqlning koshonasi bor,
Qismatdan hech kimsa topmas omonlik,
Oldinda ajalning ostonasi bor.

Sehrga nechog'lik kaloming burma,
Lazizroq so'z yo'qdir So'zidan ortiq.
Dunyoda do'st izlab qancha yugurma,
Azizroq do'st yo'qdir O'zidan ortiq.



XAZINA

Ulug' bir alloma o'tdi olamdan,
El-u yurt kuzatdi bag'rini tig'lab.
Shogirdlar bukchayib so'ngsiz alamdan,
Olimni tuproqqa qo'ydilar yig'lab.

Dedilar: – U edi nodiri davron,
Tafakkur qasriga bo'lolgan zina.
Dedilar: Bir keldi bundayin Inson,
Ketdi uning bilan tengsiz xazina.

Kimdir oxir dedi: – Dunyoda, yohu,
Behikmat hodisa yo'q ekan rosti.
Nechog'lik shafqatsiz haqiqatdir bu,
Xazinaning joyi chindan yer osti.



MARHUMLAR SHA'NI

Marhumlar sha'niga yomon so'z demoq
Makruhlik sanalmish azaldan azal.
Ey Inson, tanangga bir zum o'ylab boq,
Kimlarni zabtiga olmabdi ajal.

Toshqin sel vahmini soy ko'targaydir,
Hayotning zarbasin ko'targay hayot.
Misli toy tepkisin toy ko'targaydir,
Otning tepkisini ko'targaydir ot.

Rasululloh demish: – Kim Haqqa yo'ldosh,
Tiriklik qadrini u aziz etdi.
Marhumning ortidan ota ko'rmang tosh,
Marhum ketadigan joyiga ketdi.



QIYOMAT

Bir kun Muhammadga berdilar savol:
– Ayo, Rasululloh, aytib ber buni.
Qachon foniy dunyo topgaydir zavol,
Qachon sodir bo'lgay Qiyomat kuni?

Garchand Biru Borga somedir Inson,
Iblis qutqusi ham har qayda bordir.
Kimningdir dilida sobitdir iymon,
Kingadir shaytoniy vasvasa yordir.

Rasululloh dedi: – Umid qil, banda,
Ko'chmasin dunyodan insof, diyonat.
Nopok odamlarga kuning qolganda,
Bilgilki, o'sha kun kelgay Qiyomat!



HIDOYAT YO'LI

U senga ko'rsatdi hidoyat yo'lin,
Yurgil yo yurmassan, o'zing bil, Inson.
Balki sen tutgaysan Iblisning qo'lin,
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.

Pishqirgan daryoning sohilida gar
Tashna-yu zor qolsang, aybdorsan o'zing.
Boshingga nogahon balolar yog'ar
Labingdan uchgan chog' jaholat so'zing.

G'oyibdan baxt kutib o'ltirmoq nechun,
Dastingga kor berdi qalbingdagi yor.
Zaminda ko'rgazgan qilmishing uchun
Osmonni malomat qilmog'ing bekor.



SHAFQAT

Qabriston yonidan o'tarkan Rasul,
Ketganlar yodiga fотиha tortdi.
Yengillik sezgaydir bunday chog' ko'ngil,
Biroq Payg'ambarning g'ussasi ortdi.

Garchi boqiy emas dunyoda inson,
Garchi u aylangay bir kun tuproqqa.
Rasul anglasa ham bu holni obdon,
Oddiy banda yanglig' tushdi titroqqa.

Sahobalar dedi: – Qandayin zug'um,
Qanday g'am bag'ringiz tig'lamoqdadir?
Rasul javob qildi: – Bir osiy shu zum
Qabrida qon qaqshab yig'lamoqdadir.



JON ACHCHIG'I

Buloqdan suv ichdi hazratı Iso,
G'oyat totli edi bu obi hayot.
Suvni bir ko'zaga quyganda ammo
Zaqqumga aylandi u o'sha zahot.

Hayratga tushgaydir payg'ambarlar ham,
Bu qanday sir erur? Ayon qil, yo Rab!
Masiho nafasi yetishgani dam,
Ko'zadan bir ovoz chiqdi-ku titrab:

– Ayo, shirin suving bo'ldimi taxir,
Dema, bu tuz ta'mi, qon achchig'idir.
Men ham Inson edim. Ko'zaman hozir,
Suvni achchiq qilgan – jon achchig'idir!



SHAYTON

Shaytonning suratin chizmoqlik dushvor,
Uning asl yuzin ko'rmoqlik mushkul.
U gohi xojadir, gohida dastyor,
U goho paridur – sochlari sumbul.

Gohi u do'stman deb so'z boshlar sekin,
Lutfi g'oyat shirin, totli zaboni.
Zahmat yetkazolmas Shayton va lekin
Kimning butun bo'lsa agar iymoni.

Tushingda Rasulni ko'rdingmi – quvon,
Demak, ibodating yerda qolmaydi.
Rasululloh demish: – Shayton hech qachon
Mening qiyofamga kira olmaydi.



JINLAR

Jinlar bazm qilardi ovloqda, tunda,
Gulxan atrofida xurram, shodumon.
Bir botir suvoriy o'tarkan, shunda
Bazmga nazari tushdi nogahon.

Botirni qopladi lahzalik titroq,
So'ng gulxan ustiga ot soldi birdan,
Jinlar to'zg'ib ketdi, bittasi biroq
So'z qotdi hayiqmay sira botirdan:

- Bundoq zug'um qilma bizga, ey botir,
Kimsaga bilmasdan bermagil ozor.
Jinlar ichida ham kofiri bordir,
Jinlar ichida ham musulmoni bor.




TAVBA

Sen gunoh qildingmi, bechora banda,
Sen shayton makriga uchdingmi nogoh.
Tinchig qolmadimi ruh ila tanda,
Endi nadomatlar bo'ldimi hamroh.

Endi chora izlab, axtarib najot
Kezursan, dastingda na imkon, na erk.
Gunohkor kimsaning qoshida nahot
Qopqalar yopilgan, ostonalar berk.

Yo'q, hali olamda mavjuddir shafqat,
Yo'q, hali tebranar mehr beshigi.
Tavba qil, tavba qil, tavba qil faqat,
Senga ochiq faqat tavba eshigi.



MUNDARIJA

O'zbekiston	3
Genetika	8
Kuz manzaralari	12
Sarob	13
Holat	16
Kuz xayollari	17
✓ Sen bahorni sog'inmadingmi	19
Milliraydi mitti yulduz	20
Men nechun sevaman O'zbekistonni	21
«Munajot»ni tinglab	22
O'zbekistonda kuz	23
✚ Ayol	25
Xush kelibsan, Yangi yil	27
Nay	28
Abdulla Qahhor	29
Alisher	30
Yurtim shamoli	32
Saraton	34
Ona sayyora	36
Ruhim	39
Yolg'izlik	40
Hangoma	41
Dengizga	45
Muallimlarga	47
Havas	48
Ikar	49
Izhor	51
Talpinamiz manzillar sari	52
Savob	53
Bobur	56
Ona degan nom	56
Furqat nidosi	57
Oqar daryo	58
Burgut	59
«Uchqur xayol...»	60

Ona ilimga	61
Temir odam	62
Uyqu	64
Onajon	66
Alvido, ustoz	70
Bahor shamoli	71
↳ Senga	72
Pahlavon Mahmud qabri qoshida	73
Alisherning onasi	74
Kenglik nuqlasi	75
O'rmon	77
Chorlash	78
«Bolalik yillarim...»	79
Qo'shiq	80
Niyat	81
General	82
Bahor senikidir	84
Yanvar	85
Xayrixoh	86
Diyor	87
Yosh rassomlarga	88
Qo'riqxonasi	90
Uchinchi odam	92
Asrimiz odami	94
Dorboz	96
Tilla baliqcha	97
Avlodlarga maktub	98
Bahor	101
Sozim	105
Go'zalik	106
Ohu	107
Shoir	108
Minorai Kalon tepasidagi taylak	109
Haqiqat yo'llari	110
Xotiroti	112
Noma'lum odam	114
Yaxmalak	115
Altorna	116
O'zbekiston bayrog'i	118
Ishonch ko'priklari	120
Isma'loq	121
Alisher va talaba	123
Uyg'unish zamoning	125

HIKMAT SADOLARI

Ibodati	126
Jabroili	127
Me'roj	128
«Qum fa anzir!»	129
Vahiy	130
Hordiq	131
Ibrat	132
Ro'za	133
Hayit	134
Haj	135
Oyisha	136
Hazrati Odam	137
Bilol habash	138
Inson	139
Ota	140
Ona	141
Farzand	142
Do'zaxiyar	143
Bahs	144
Savob	145
Dug	146
Bandaga sig'inma	147
Xazina	148
Marhumlar sha'ni	149
Qiyomat	150
Hidoyat yo'li	151
Shafqat	152
Jon achchig'i	153
Shayton	154
Jinlar	155
Tavba	156

ABDULLA ORIPOV

SAYLANMA

Toshkent «Ma'naviyat» 2007

Muharrir *U. Qo'chqorov*
Rassom *T. Qandoatov*
Texn. muharrir *T. Zolotilova*
Musahhih *D. Bazarova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Bosishga 10.06 2007-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108/₃₂. Tayms garniturası.
Ofset bosma usulda bosildi. Shartli b.t. 8,40. Nashr t. 4,91. 6000 nusxa.
Buyurtma №07-727. Narxi shartnoma asosida

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy. Shartnoma 37-07.

O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 700129. Toshkent, Navoiy ko'chasi,
30-uy 2007.



Manovinyat

ISBN 978-9943-04-054-0



9 789943 040540